O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI FAKULTETI

TOJIBOYEVA GULSHODAXON ABDUMANNOB QIZI

JADID DRAMATURGIYASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING ADABIY-ESTETIK TADRIJI

Monografiya

Toshkent – 2022

“FIRDAVS-SHOH”

UO‘K 821.512.123
KBK 54.4(5O‘)
T 65

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashining 2022-yil 20-noyabrdagi 6-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:
Xoliqova Nodira Djoxongirovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:
Davlatova Adiba Rahmatovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent;
Sirdaryo O‘tanova Hakimjonovna
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti, folklori instituti katta ilmiy xodimi, f.f.d.

Tojiboyeva G.A.
Jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar obrazining adabiy-estetik tadriji [Matn] / Monografiya. G. A.Tojiboyeva. – Toshkent: “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2022. – 70 b.

Monografiyada XX asr 1-choragidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy hayot ochib berilgan. Xotin-qizlar timsolida jaholat va ma’rifat talqini yuzasidan ilmiy ma’lumotlar orqali davr muhitini ayollarga bo‘lgan munosabat, xotin-qizlar obrazining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy tadriji hamda o‘zbek jadid adabiyotidagi talqinining xos xususiyatlari yoritib o‘tilgan. Shuningdek, o‘zbek jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar obrazi erk va ozodlik, ilm-u ma’rifat talqinining badiiy-estetik asosi ekanligi ilmiy asoslangan hamda dramaturk ijodkorlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g’li Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Xoji Mo‘inlarning ijodlari asosida xotin-qizlar obrazi o‘zaro qiyoslanib, tahlil ishlari olib borilgan.

Monografiya 1-4 kurs talabalari uchun mo’ljallangan.

ISBN 978-9943-8753-0-2

© G. A.Tojiboyeva, 2022
© “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2022

SO‘Z BOSHI

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho adabiy me’roslarni yangicha mezonlar asosida xolisona tadqiq qilish uchun har qachongidan ham dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Buyuk ajdodlarimizning boy me’rosini o‘rganish, ularning ijodlaridagi asl insonparvarlik mohiyatini avvvalombor xalqimizga, dunyo hamjamiyatiga yetkazish, jamiyatda “jaholatga qarshi-ma’rifat” tamoyilini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi”[1] deya ta’kidlab o‘tadi.

Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.Bu jarayonda muayyan xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyot insonni ongli ravishda tarbiyalaydi, mushohada qilishga o‘rgatadi, o‘ylashga majbur etadi, fikrini teranlashtiradi va erkin fikrlashga o‘rgatadi. Inson ma'naviy dunyosini boyitadi, surat va siyratini go‘zallashtiradi. hayot davom etar ekan, fan va texnika doimiy ravishda taraqqiy etib boradi. Jumladan, bugungi milliy adabiyotimiz ham yangilanib bormoqda. Shuning uchun unga doir tadqiqot ishlarini doimiy ravishda olib borish yangi davrning talabidir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma‘naviyati, uning o‘tmishi va kelajagi taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish, yosh avlodga ajdodlarimiz asarlarida ilgari surilgan g‘oya va mavzularning tub mazmun-mohiyatini anglatish, mutafakkir adiblarimiz merosiga vorislik, izdoshlik, ularni Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch ruhida komil insonlar etib tarbiyalash borasida jadidchilarimiz Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy,Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Xoji Mo‘in dramalarida insonni ruhiy va ma‘naviy dunyosini boyitishga xizmat qiluvchi betakror xotin-qizlar obrazining adabiy-estetik tadrijini, xususiyatlari hamda talqinlarini o‘rganish nechog‘liq muhim ekanligi buning dalilidir.

Jadid dramaturgiyasi bir necha o‘ziga xos xususiyatlar bilan birga, dramaturgiyani real ijtimoiy hayotning eskizi, tasviriy oyinasi deb bilish,

[1] Mirziyoyev.Sh.M nutqidan https://xs.uz.<post> shavkat mirziyoyev 2018/21/12

dramalarni yaratishda dunyoning ilg‘or ijodkorlari tajribalariga tayanish, dramaturgiya nazariyasi talablariga to‘liq javob beruvchi asarlar yaratish va sahnaga qo‘yishga intilish, sahna asarlari vositasida xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish va millatni taraqqiyotga boshlash kabi muhim jihatlarga нaм egadir. Jadid dramalarida ko‘tarilgan mavzularning aksariyati bugungi kunda ham dolzarb ekanligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining poetik evolyutsiyasini tadqiq etish mumtoz adabiyot bilan zamonaviy adabiyotning o‘zaro aloqadorligi va obrazlarning tadrijiy takomilini belgilash imkonini berishi jihatidan ahamiyatlidir.

Dramatik asarlarda xotin-qizlar obrazi tadrijiy takomili masalasini tadqiq etish o‘zbek jadid adabiyoti taraqqiyotining ijtimoiy-ma’rifiy va adabiy-estetik omillarini aniqlashda alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqotning maqsadi.

–XX asr 1-choragida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlar millat taqdiriga tahdid soluvchi o‘ta og‘ir va qaltis harakatlarning jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo‘lgan yirik iste’dod egalari – jadid adiblari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g ‘li Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Xoji Mo‘inlarning jismonan hamda ijodlaridagi istiqlol harakati, hurriyat, erk va ozodlikka mavzularining bosh g’oya sifatida kuylangan asarlari orqali tahlil qilinib, yoritilishi.

–XX-asr boshlarida xotin-qizlar timsolida jaholat va ma’rifat talqini, xotin-qizlarga bo‘lgan jamiyatning munosabati, o‘ta qaltis davrda ayollarga bo‘lgan zug’m va zo‘ravonliklar, qo‘sh xotinlilik natijasida yuzaga kelgan talofotlar, ojizalarni qul sifatida ko‘rilishi hamda ma’rifat yo‘lida xotin-qizlarni ziyo yo‘liga chorlagan ma’rifatparvar insonlarning harakatlari.

–O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining adabiy-estetik tadrijini ochib berish, dramatik asarlardagi obrazlar misolida ayol dunyoqarashi va faoliyatidagi o‘sish jarayoni badiiy talqinining evolyutsion bosqichlarini aniqlash hamda ilmiy-nazariy aspektda tadqiq qilish.

–Ayollarning jamiyatdagi o‘rni ilmiy-falsafiy, didaktik tahlil etiladi, ayollar obrazini alohida bir timsol, alohida bir mavzu sifatida ko‘tarish sabablari yoritib, misollar tariqasida ochib berish.

–Dramaturk ijodkorlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g’li Cho‘lpon,

Fitrat, Abdulla Avloniy, Xoji Mo‘inlarning ijodlari asosida ayol obrazi timsollari o‘zaro qiyoslash, tahlil qilishdan iborat.

Monografiyaning maqsadi

–XX asr 1-choragidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy hayotni ochib berish;

–Xotin-qizlar timsolida jaholat va ma’rifat talqini yuzasidan ilmiy ma’lumotlar orqali davr muhitini ayollarga bo‘lgan munosabatni tahlil qilish;

–xotin-qizlar obrazining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy tadriji hamda o‘zbek jadid adabiyotidagi talqinining xos xususiyatlarini belgilash;

–o‘zbek jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar obrazi erk va ozodlik, ilm-u ma’rifat talqinining badiiy-estetik asosi ekanini ilmiy asoslash;

–badiiy nutq va konflikt o‘zbek jadid dramasida xotin-qizlar obrazi takomilining badiiy-estetik asosi ekanini ilmiy dalillash;

–jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi tadrijida ijodkor badiiy mahoratining o‘rni masalasini yoritish hamda nazariy umumlashmalar chiqarish;

–dramaturk ijodkorlarning asarlari yuzasidan xotin-qizlar obrazlarini o‘zaro qiyoslash va tahlil qilishdan iborat.

Monografiyada quyidagilar qayd etilgan:

– o‘zbek jadid dramalari misolida ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy maqomi, sinfiy va gender tengsizlik jamiyatidagi quyi tabaqa vakilining badiiy tasviri masalalari tekshirilib, xotin-qizlar obrazi erk va ozodlik talqinining badiiy-estetik asosi ekani ilmiy asoslandi;

– davr, muhit hamda o‘zbek ayollari tabiatiga xos milliy xususiyatlarning qahramonlar ruhiyati talqinidagi o‘rni va roli o‘zbek jadid dramasi misolida tekshirilib, xotin-qizlar obrazi evolyutsiyasi milliy ruh talqini va “Evropa ayoli” obrazining badiiy tasviri kesimida yoritildi;

– badiiy nutq va konflikt xotin-qizlar obrazi takomilining badiiy-estetik asosi ekani ilmiy-nazariy aspektda dalillandi;

– jadid dramalari qiyosiy tadqiqi asosida xotin-qizlar obrazi tadrijida ijodkor badiiy mahoratining o‘rni masalasi ilmiy-nazariy yoritildi.

– jadid ma’rifatparvarlarining asarlaridagi ayollar obrazining o‘rni ilmiy-falsafiy, didaktik tahlil etilib, ayollar obrazini alohida bir timsol, mavzu sifatida ko‘tarilishi sabablari ochib berild.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adiblaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Xoji Mo‘inlarning epik, lirik va dramatik asarlari mavzuni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi “Nodir kitoblar” fondida saqlanayotgan milliy matbuotimizning ilk namunalari hisoblangan gazeta va jurnallardan yordamchi manba sifatida foydalanildi.

Mustaqillik davri jadidshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan, jadid ziyolilarining biografiyasi, asarlarining qamrovi va mavzu ko‘lami tadqiqiga bag‘ishlangan. Jahon va rus, o‘zbek adabiyotiga mansub asarlar tahlilida ilmiy-nazariy munosabat bildirilgan bo‘lib, E.Nazarov, B.Qosimov, N.Karimov, A.Jalolov, B.Nazarov kabi professor olimlar XIX asr oxiri-XX asr boshlari Turkistonda sodir bo‘lgan voqealar, ularning sababi va ahamiyati, adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni haqida fundamental tadqiqotlar olib borishgan. Mustaqillik davri jadidshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan, jadid ziyolilarining biografiyasi, asarlarining qamrovi va mavzu ko‘lami tadqiqiga bag‘ishlangan.

Shuningdek, jadid adabiyoti namoyondalarining hayoti va ijodiy faoliyati, ularning asarlari, jumladan, dramaturgiyasi xususida G‘.G‘ulomov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, N. Karimov, Sh.Rizayev, S.Ahmad, B.Do‘stqorayev, B Karimov, Z.Mirzayeva, B. Do‘stqorayev va boshqa yirik olimlar hamda bir qancha tadqiqotchilar G.Qarshiyeva, I.G‘aniyev, A.Davlatova, N.Xoliqova, Y.Eshmatova, O.To‘ychiyeva, M.Sulaymonov, D.Matqurbonovalar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Mustaqil O‘zbekistonning Milliy istiqlol mafkurasi asoslari, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning milliy mafkura va adabiy meros haqidagi asarlari tadqiqotning birlamchi metodologik asosini tashkil etadi. Mavzuni batafsil ochib berish maqsadida I.Sultonov, Yu.Sultonov, M.Qo‘shjonov, L.Qayumov, S.Mamajonov, O.Sharfiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, N.Karimov, A.Rasulov, B.Sarimsoqov, R.Ibrohimova, .Boltaboev, N.Jumaxo‘ja, B.Karimov, D.Quronov va boshqa adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlariga, ilmiy-nazariy qarashlariga tayaniladi.

I BOB. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI

I. I. XX asr birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy hayot

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o‘ta qaltis va og‘ir ichki tarixiy muhit paydo bo‘ldi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamlaka va zo‘ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa, endi o‘z mafkurasini singdirish orqali ma’naviy ustunlikka ham ega bo‘lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g‘ururini sindirish, o‘zligini yo‘qotishdek, o‘ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar.[2] Ikkinchi tomondan esa, millat va xalqimiz o‘z siyosiy, ma’naviy huquqlari, erki va hohish-irodasini yo‘qotdi. Uchinchidan, umuman musulmon mutaassibligi (konservatizm va bid’at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma’naviyati tubanlashdi. Buning ustiga ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma’rifat va taraqqiyotga qarshilik ham avj oldi. Bu esa, Islom dini hamda shariatiga mutlaqo zid ravishda avj oldi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qiladi. Xuddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham ro‘y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o‘z xalqlarini ma’rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko‘tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar[3].

Ushbu g‘oya asosida Tuskistonda siyosiy, ma’rifiy **jadidchilik** harakati vujudga keldi. Jadidchilik XIX asr oxiri-XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatdir. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) rahbarligida Qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. U 1884-yil martda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochadi va “usuli savtiya tadrijiya” – savtiya (tovush) usuli bilan 12 bola o‘qitilib, 40 kunda savodi chiqarilgan. Ismoilbek 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar

[2] R.Shamsutdinov, X.Mo’minov. O’zbekiston tarixi. Andijon: 2011. 101-bet
[3] Tillaboyev S, Zamonov A.9-sinf. O‘zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent: 2019. 88-bet

bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va G’ijduvonlik Domla Fozilning sa’y-harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Bu maktabga “Muzaffariya” degan nom berilgan.[4]

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov jadidlarchilar Uyg’onish davriga asos solganligini e’tirof etgan holda shunday deydi: “XX asr boshida mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi ufqlarda milliy va erkinlik sari intilib yashashgan bir davrda buyuk ajdodlarimiz- jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o‘ziga xos ma’naviy jasorat na’munasi, deb atash mumkin”[5]

Ma’rifatparvar, vatanparvarlik ruhida O‘rta Osiyoda Turkiston hamda Xiva jadidlari vujudga kelib, musulmon xalqlari uchun ma’naviy qalqon bo‘lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo‘yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li avval tarbiya va ma’rifat, so‘ng islohot ekanligini juda to‘g‘ri anglab yetdilar. Shu bilan birga davlatning boshqaruv tizimizamon talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanligini va uni o‘zgartirish lozimligini chuqur angladilar.[6]

Bugungi kunda Respublikamiz olimlari jadidchilik harakatida quyidagi 3 ta bosqichni farqlashmoqda

1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha-ma’rifatchilik;
2) 1915- yildan 1918-yil fevraligacha muxtoriyatchilik;
3) 1918-yil fevralidan 20-yillar ohirlarigacha mustabit sovetlar davridagi faoliyatlar.[7]

Shuning bilan birgalikda jadidchilarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan.

1) yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2) umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
3) turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarini chop etish;

Yuqorida aytib o‘tilgan dasturi amalni yuzaga chiqarish borasida muttaffakirlarimiz M.Bebudiy, A.Fitrat, A.Munavvarqori,

[4] R.Shamsutdinov. X.Mo’minov. O’zbekiston tarixi. Andijon, 2011. 306-307-bet
[5] I.Karimov.Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat” 2008. 49-bet
[6] Tillaboyev S, Zamonov A.9-sinf O‘zbekiston tarixi // Darslik.-Toshkent: 2019. 89-bet
[7] https://fayllar.org Turkiston o‘lkalarida jadidchilik harakati

A.Ubaydullaxo‘ja, A.Avloniy, A.Cho‘lpon hamda boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishgan.

Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi.

1. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo‘lgan bo‘lsa, jadid adabiyotida bularning o‘rtasida o‘zaro tenglik ya’ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

2.Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g‘arb adabiyotidagi roman, drama, esse, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she’riyat (poetika) kabi badiiy janrlar ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Proza va publitsistika paydo bo‘ldi.

3.Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega bo‘ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o‘z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

4. Jadid adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o‘zgardi. U endi an’anaviy oshiq yohud ma’rifatparvargina emas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidalari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o‘z ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy qarashiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo‘lgan yirik iste’dod egalari-jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san’ati arboblarini ham tarbiyaladi. Jadidshunos, taniqli olim, professor Begali Qosimovning ta’kidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg‘in faoliyat ko‘rsatganlari saksondan ortiq bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Vasliy Samarqandiy (1869-1925), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To‘lagan Xo‘jamyorov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919), Muhammadsharif So‘fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir [8]

[8] Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.-Toshkent: “Ma’naviyat” 2004.22-bet

Jadidchilarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lib, ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar.

1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu harakatlar faqatgina ta’lim maskanlarida emas, jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning ko‘plab turlari vujudga kelishida ham ko‘rina boshladi.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o‘ta ayanchli va havfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhning harakati paydo bo‘ldi. Ular «jadid» (yangi) degan ulug‘ nomga muyassar bo‘lgan holda Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma’naviy qalqon bo‘lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo‘yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li avval tarbiya va ma’rifat, so‘ng islohot ekanligini juda to‘g‘ri anglab yetdilar.

1905-1917 yillarda Rusiya va jahon tarixida yuz bergan bir qator muhim siyosiy voqealar Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, 1904-yilda boshlangan rus-yapon urushi va Rossiyaning yengilishi, 1905-yilda mamlakatda yuz bergan hukumatga qarshi g‘alayonlar va bularning natijasi o‘laroq podsho Nikolay II ning barcha fuqarolarga, shu jumladan, tobe millatlarga so‘z matbuot, vijdon erkinligini va’da etuvchi 17- oktyabr Manifestini e’lon qilishga majbur bo‘lishi, birinchi jahon urushi va Turkistondagi mardikorlik voqealari, 1917-yil fevral, oktyabr o‘zgarishlari, nihoyat shu yili 27- oktyabrda Turkiston muxtoriyatining e’lon qilinishi va xoinona qonga botirilishi kabi olamshumul hodisalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1914-1917 yillardagi Birinchi jahon urushi ko‘p xalqlarga bitmas-tuganmas kulfat keltirdi, birinchi jahon urushida Rossiyaning ishtirok etishi va talafotga uchrashi, o‘z navbatida, unga tobe bo‘lgan Turkiston o‘lkasi mahalliy aholisi hayotining, turmush sharoitining og‘irlashuviga ham olib keldi. Chunki urushning hamma qiyinchiliklari aynan mustamlaka xalq zimmasiga tushishi aniq edi. Urush sababli sodir bo‘lgan voqealar xalq boshiga ko‘p ofat yog‘dirdi. Mustamlaka siyosati va cheksiz zulm, ochlik va qahatchilik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi. O‘lkada g‘alla yetishtirish hamda chorvachilik kundan-kun orqaga keta bordi. Rossiyadan g‘alla keltirish

ham juda kamayib ketdi. Ruslarning aldovlariga ishonib, zahmat bilan paxta yetishtirgan o‘zbek dehqoni natijada na nondan, na ust-boshdan yolchidi.

XX asr boshi o‘zbek adabiyotida bu veqealarning aks-sadosini sezmaslik muhim emas. Mashhur tatar shoiri Abdulla To‘qay shuni ko‘zda tutib: “Biz Beshinchi yilda bir kun ko‘zni ochdik tong bilan ishga da’vat etdi bizni kimdir ezgu nom bilan” – deb yozgan edi. 1905-yi voqealari Turkustonda ham aks-sado topgan.1917-yil noyabrdagi Turkiston muxtoriyati, 1920-yildagi Buxoro va Xorazm xalq jumhuriyatlari jadidlarning faoliyati samarasi sifatida maydonga kelgan edi. Ular birinchi navbatda, ochiq fikrli Yangi avlodni tarbiyalashga diqqatni qaratdilar. Buning uchun **“usuli jadid”** maktablariga zo‘r berdilar.

Ikkinchidan, mahalliy-milliy matbuotni maydonga keltirdilar. To‘g’ri, Toshkentda 1870-yildan chiqa boshlagan “Turkiston viloyatining gazetasi” Turkiston mahalliy tilda chiqqan birinchi matbuot namunasi edi. Gazetada Sh.Ibrohimov (1872), H.Chanishev (1881) kabi yerli tatarlar, I. Xudoyorxonov (1893) singari o‘zbeklar ma’lum muddat muharrirlik qilgan bo‘lsalar-da, uning asl egasi, yo‘riqchisi N.Ostroumov edi. Shunga ko‘ra, uning milliy gazeta bo‘lishi imkondan tashqarida edi. 1905- yil 17-oktyabr manifesti xalqqa matbuot va siyosiy tashkilotlar tuzishga ruxsat bergach, Turkiston jadidlari bir qator uyushma- jamiyatlar bilan birga gazeta-jurnal ishlariga ham kirishdilar. Shulardan biri 1906-yilning 27-iyunida dunyo yuzini ko‘rgan “Taraqqiy” gazetasi edi. “Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki”- deb yozadi Abdulla Avloniy, hatto gazeta muharriri bo‘lgan Ismoil Obidiyga “Taraqqiy” ismi beriladi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini “Taraqqiy” deb yuritadur”[9]. Gazeta mahalliy yoshlarga o‘z sahifasida keng o‘rinlar berdi. Uning yaqin hamkorlaridan biri Munavvarqori edi. 1906- yilning sentyabrida Munavvarqori muharrirligida Toshkent jadidlarining ikkinchi muhim gazetasi “Xurshid” paydo bo‘ldi. 1907- yilning 1-dekabrida Abdulla Avloniy o‘z uyida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshladi.

XX asr boshlarida xalq ommasi ichidan ko‘zga ko‘ringan adabiyot – madaniyat namoyondalari, islom dini arboblari o‘sib chiqqanki, ularning faoliyati mamlakat ma’naviy hayotida beqiyos bo‘lgan. Mamlakatdaga ma’naviy – madaniy muhitning boy va sermazmunligi erli xalqlar

[9] https://elibrary.ru

etnografiyasi sohasidagi yirik mutaxassislardan biri O.A.Suxareva quyidagicha ta’riflagan: “Shaharlarda jumladan, Buxoroda fan, adabiyot, san’atning turli ko‘rinishlari rivojlangan, ko‘p obidalar to‘plab kelgan madaniy boyliklar to‘plagan..., unda qo‘l yozma kitoblarning maxsus bozori bo‘lgan bu bozor XIX asr oxiri XX asrda bor edi... Buxoro shahrida madrasalar soni ko‘p edi.” Buxoro davlatida jumladan, maorif va madaniy sohalari bo‘yicha statistik kuzatishlar olib borilgan. Maktablar masalasini olib ko‘rganda, bu sohada sinfdan – sinfga o‘tkazish guvohnoma topshirish tizim bo‘lmagan. Shu sababli mamlakat aholisining ma’naviy - madaniy saviyali raqamlar vositasi bilan faqat nisbiy aniqlash mumkin. Boshlang‘ich savod o‘rgatgan maktablar, shaharlar va qishloqlardan machitlar qoshida bo‘lgan. Maktabga qatnagan o‘g‘il bolalarni machit imomi – xotibi yoki imom maktabdorlar, qiz bolalarni Otin oyi o‘qitganlar. XX asr birinchi choragida Buxoro shahrida 218 machit bo‘lgan, aholisi 70 ming kishi tashkil qilgan, o‘rta hisob bilan bir machitda 320 aholi va 50-60 xonadon to‘g‘ri kelsa, faqat Buxoro shahrida 16360 atrofida bola qatnagan. 3 Maktab ba’zida madrasa ham bo‘lgan. Masalan: Imami Bahri Hamid madrasasi oldidagi maktabda 200 o‘quvchi savod chiqargan. Qiz bolalar 10–11 yoshda maktabga qatnashni to‘xtatganlar. Jamiyat turli qatlamlarida bolalarga, ayniqsa, qizlarga oilada ta’lim berish tajribasi keng tarqalgan. Iqtidorli va ma’lum bilimlarga ega bo‘lgan yoshlar o‘qitishni madrasalarda davom etganlar. Mamlakatning uzoq – yaqin tumanlaridan qo‘shni mamlakatlardan va ba’zi yirik yurtlardan o‘qishga kelganlar ma’lum sinovdan so‘ng qabul qilishganlar.

Hamza, Mirmuhsin, Fikriylar adabiyotimiz tarixida birinchi bo‘lib, “ro‘mon” degan atama, tushuncha, qolaversa janrning paydo bo‘lishining embrional davrini boshlab bergan bo‘lsa-da, Abdulla Qodiriy romanlari bu boradagi amaliy jarayon va izlanishlarning yagona va mukammal mevasi sifatida birinchi yetuk o‘zbek realistik milliy romanning tug’ilishiga olib keldi”[10].

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining birinchi bosqichida ma‘rifatchilik g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lsa, bu g‘oya keyingi davr jadid mafkurasining qon tomiriga aylandi. Is’hoqxon Ibratning “Madaniyat haqida masnaviy” (1912) asarida Forobiyning fozil shahriga yaqin turadigan bir maskan, obod yurt tasviri chizilgan. Jadidlar ham avvalo milliy va ma‘naviy birlikni nazarda tutgan va asarlarida badiiy

[10] Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy.-Toshkent: “Fan” 2004. 66 b.

aks ettirgan edilarki, bu ular Sharq tafakkurining yetuk bilimdoni Forobiyning “baxtga erishish uchun kishilar bir-biriga yordam deyishga asos bo‘ladi. XX asr boshlarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy voqealar olimi badiiy so‘z san'ati bilan bir qatorda adabiyotshunoslikka ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yaratilayotgan asarlar mazmuniga, qolaversa, davr taqazosiga ko‘ra yangicha yo‘nalishda tahlil qilina boshlandi[11].

XIX asr Toshkentlik va Qo‘qonlik o‘zbeklar hayotiga bag‘ishlangan “O‘tkan kunlar” romani katta shuhrat qozongan bo‘lib, barcha ziyolilar ushbu kitobni o‘qishga intilgan, hattoki savodsiz kishilar uni tinglash uchun guruh bo‘lib to‘planishgan. Ko‘plab o‘zbek oilalarida romanning Otabek va Kumush qahramonlarining ismlari paydo bo‘la boshlagan.

Ijtimoiy kurashlar kechayotgan zamonda so‘zning qudrati, ta’sirchanligi qurol vazifasini ham o‘tashi sir emas. Jadid adabiyotida didaktik mazmunning buyukligi, da’vatning ustunligi shundan. Demak, endi adabiyotdan inson ahlini charxlaydigan fanniy – ilmiy, ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatadigan – milliy, tarbiyasi uchun muhim – axloqiy tushunchalar talab qilina boshlandi. Va bu talabga javob bera oladigan qator asarlar ham ijod qilindi.

Bu davr adabiyotiga baho berib, professor B.Qosimov “yangi poeziya 20- yillarga g‘oyat murakkab va ziddiyatli tuyg‘ularni o‘zida jo etgan e’tirof va e’tiroz bilan kirib keldi” -deydi. Haqiqatan davr murakkab, ijtimoiy turmush og‘ir edi. Qiyinchilikni engish uchun kurashish lozim. Bu o‘z-o‘zidan echim topadigan masala emas. Yangilik kerak. Nasr, dramaturgiya, vazn yangilanishi – adabiyotimiz juda qisqa vaqtda erishgan o‘zgarishlardan edi.

Bu davrda yaratilgan ilk she'riy va dramatik asarlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosan, ijtimoiy masalalarni qalamga oldi. Ma'rifatni isloh qilish va avlodni maktablarga targ‘ib qilish davrning, tabiiyki, adabiyotning ham bosh vazifasiga aylana bordi. Lekin keyinchalik milliy matbuot degani bo‘lar-bo‘lmas narsani yozaverish degani emas, u avvalo adabiy maktab darajasida bo‘lishi lozim, qabilida fikr yuritgan muallif “muqarrir”larga murojaat qilib, “adabiyot torozusiga solib yozmoq kerakdir”, deya tanbeh ham beradi. “Bo‘lingiz, muharrirlik g‘ururi ila yozilgan dramalargakim, bunda birisining oldi mavzu g’oyat ahamiyatsiz, turmushimizda, ya'ni fantaziya shaklli bir narsa, ikkinchisining olgan mavzui ahamiyatli, lekin voqeali tasvir yo‘li so‘ng

[11] D.Zarifova Milliy uyg‘onish davri o’zbek adabiyoti. https://fayllar.

daraja buzuq, asardagi qahramonning so‘z va ishi xarakteriga nomuvofiq, diolog o‘rniga monolog ishlatilgan, monologni talab etgan bir o‘rin butun ko‘rsatilmagan, asar qahramonining ichki siri ochilmay tomoshachilarni faktlar to‘la ko‘rsatilmagan uchun ko‘p yerlar majhul va hokazo…”. Bu bilan muallif haqiqiy adabiyotning muhim tamoyillarini to‘g‘ri ta'kidlagan.

Haq so‘z ijodkor qalbida yashiringan orzularni oshkora yozish va aytish, shuning barobarida zulm tunini yoritishdan iborat edi.

Davrlar inson dunyoqarashiga, shakllangan, o‘zgargan dunyoqarash esa tuzumlarga ta'sir ko‘rsatgani kabi ijtimoiy-siyosiy voqelik oqimidagi yangilanishlar badiiy asarlarda ham aks etishi tabiiy xol. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi adabiyot ma'rifatchilik bo‘yoqining quyuqligi, ruhiy kechinmalardan, qalb evrilishlaridan ko‘ra, ijtimoiy mazmunni ko‘proq ifodalagani bilan ajralib turadi.

Zero, jadid bobolarimiz o‘z zimmalariga davr yuklagan missiyani juda yuksak darajada ado etganlar. Behbudiy asosan mafkurada, Hamza dramada, Fitrat ilmda, Qodiriy nasrda, Cho‘lpon esa she’riyatda ana shu ulug‘ vazifani bekamu-ko‘st bajarganlar.

XX asr avvalida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar asrlar davomida Sharq mumtoz adabiyoti an’analari ruhida taraqqiy etib kelayotgan o‘zbek adabiyotida dramatik turni paydo qildi. Dramaning tug‘ilishi o‘zbek adabiyoti uchun xuddi roman janri kabi yangi hodisa edi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ana shu hodisaning boshida turdi va o‘z dramatik asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasiga asos soldi.

XX yuz yillik ibtidosida millatning tafakkur gullari ma’rifatsizlikni yurtning eng og‘riq nuqtalaridan biri deb bildilar. Shuning uchun ham ular iste’dodlarini elni o‘qimishli qilishga bag‘ishladilar, bu yo‘lda vaqtlari, kuchlari, mablag‘lari va hatto jonlarini ham ayamadilar. Ular xalqning ma’rifatli bo‘lishini yurt ravnaqi va millat taraqqiysining asosi, deb bildilar. Oqibat – adabiyotda ma’rifatli kishi obrazi paydo bo‘ldi. Avloniy, So‘fizoda, Ibrat, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon kabi qator shoirlarning ijodida shu g‘oya qayta-qayta ishlandi.

Behbudiy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o‘zbek teatrining tamal toshini qo‘ydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy **“*teatr-ibratxona*”** g‘oyasini ilgari surgach, ilg‘or fikrli jadid ma’rifatparvarlari masalaning mohiyatini tez anglab oldilar. Chunki sahna asari o‘sha davrdagi turkistonliklarning ayanchli turmush tarzini, ijtimoiy hayotdagi illatlarni insonga ko‘zgu sifatida

ko‘rsatib bera olar edi. Sahna voqeligida odamlar o‘z hayotlarini ko‘rib, ilg‘or jihatlaridan suyunar va salbiy illatlaridan esa kuyunar edi. Bu esa teatrning o‘ziga xos ibratxona b ‘lishini anglatardi. Shu ma ‘noda jadid dramaturgiyasi Turkiston xalqlari madaniyatining ko‘zgusi sifatida paydo bo‘ldi, leki uning haqiqiy ko‘zguga, chinakam ibratxonaga aylanishi uchun asarlar kerak edi. E’tiborlisi shundaki, bu ehtiyoj ham ma’rifatparvar ziyolilarimiz tomonidan to‘laqonli ravishda qondirildi.[12]

Akademik A.N.Samoylovich ma’rifatparvarlik adabiyotini o‘rganib, 1916-yilda “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi” deb yozgan edi. Darhaqiqat, olim uchun kutilgan “Yangi adabiyot”-ma’rifatparvarlik adabiyoti bo‘ldi. Bu adabiyot o‘z mazmun va mohiyati hamda janrlariga ko‘ra, ming yillar davomida shakllanib rivojlangan mumtoz adabiyotimizdan tubdan farqlanuvchi yangi adabiyot bo‘ldi.

Jamiyatdagi barcha ayollar boshqalar ra’yiga ko‘ra taqdiridan rozi bo‘lib ketib, alaloqibat, baxtsizlikka mahkum bo‘lib qolayotganlarini qoralaydi. Cho‘lponning orzusi ayollar hurligi, ilm-ma’rifatli bo‘lishidir. Ular ham inson sifatida o‘z xohish istaklariga ko‘ra yashashi, ilm olishi, oila qurishini istaydi va orzulaydi. Jamiyatni ogohlikka da’vat etadi.

1. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo‘lgan bo‘lsa, ma’rifatparvarlik adabiyotida bularning o‘rtasida o‘zaro tenglik ya’ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

2. Ma’rifatparvarlik adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g‘arb adabiyotidagi roman, drama, esse, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she’riyat (poetika) kabi badiiy janrlar ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Proza va publitsistika paydo bo‘ldi.

3. Ma’rifatparvarlik adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega bo‘ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o‘z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

4. Ma’rifatparvarlik adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o‘zgardi. U endi an’anaviy oshiq yohud ma’rifatparvargina emas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidalari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o‘z ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy qarashiga ega bo‘lgan shaxsdir.

[12] Gulabza Qarshiyeva. Jadid dramaturgiyasiga xos xususiyatlar.

Turkiston (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona) jadidchilik harakati (ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot)

Ushbu hududlarda jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, imperiyaning xom ashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Turkiston muxtoriyati tarkibiga ko‘plab Farg‘onalik jadidlar mas’ul lavozimlarda ishladilar. Farg‘onalik jadidlar mas’ul lavozimlarda ishadilar. Farg‘onalik jadidlar butun faoliyatlari davomida Muxtoriyatni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni targ‘ib va tashviq qildilar. Xalq majlisiga Farg‘ona violoyatidan Shoislom Shoahmedov, Abdurahmon O‘razayev, Hidoyatbek Yurali Akayev, Nosirxonto‘ra, Toshxo‘ja Ashurxo‘jayev,Mirodil Mirzaahmedov, Abdulqodir Qushbegiyev, Obidjon Mahmudov, Jamshidbek Qorabekovlar kirdillar. Majlisda milliy pul jamg’armasi tashkil etilib, farg‘onalik taraqqiyparvarlardan Mirodil Mirzaahmedov 10000 rubl miqdorida pul o‘tkazdi[13]

1918-yilda Andijonda “Muayyan ul- islom jamiyati idorasida musulmon jamoat tashkilotlarining sezdi bo‘lib o‘tdi. Delegatlar tomonidan uyezd ma’muriyatidagi barcha shaxslardan Turkiton Muxtoriyati Muvaqqat hukumatini tan olganligi haqidagi tilxatni olish uchun sezd prezidiumi a’zolaridan maxsus komissiya tuzish haqida taklif bildirildi. Jadidlar ommasi “Sho‘roi Islomiya” atrofida jipslashishga da’vat etdilar. “Sho‘roi Islomiya” Qo‘qon bo‘limining aholiga murjaatnomasida shu munosabat bilan quyidagilar aytiladi:

“Hurmatli ozod musulmonlar! Ishonchingiz komil bo‘lsinki, Qo‘qon musulmonlari bir ovozdan tashkil etgan “Sho‘roi Islom” yangi tashkiloti har doim musulmonlar manfaatiga xizmat qiladi.

Bu tashkilot doimo tinchlik va xotirjamlik uchun harakat qiladi. Agar barcha musulmonlar birgalikda tinchlik va tartibni saqlashsa, bu biz hamma musulmonlarning foydasiga bo‘ladi. Lekin tinchlik-xotirjamlikni namoyon etmay, har xil quruq gaplarga quloq solsak, bizga berilgan Ozodlikdan foydalana olmaymiz!”[14]

[13] Turkiston Muxtoriyati. https://hozir.org

[14] Qozoqov Tohirjon. Dots nomzodlik ishi.hhps//uz

Bundan tashqari muxtoriyatni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun har bir volostdan vakillarni jalb etgan holda xalq militsiyasini tashkil qilish haqida qaror qabul qilindi[15].

Shuningdek, jadidchilar harakati Turkistonda davom etgan holda 1917-yilning mart oyida Qo‘qonda musulmon madaniy-ma’rifiy jamiyati tuzildi.1917-yilning 20-martida Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan musulmon fuqarolarning umumiy yig‘ilishida “Musulmon madaniy-ma’rifiy jamiyati” tuzilganligi e’lon qilinadi.

Andijon shahrida avgust oyining boshlarida musulmon hunar ahlining “Sanoyi ul-islom” sho‘rosi tuzildi. Unga 1500 kishi a’zo bo‘lib kirdi.

Shuning bilan birgalikda o‘lkadagi demokratik jarayonlar rivojida vodiydagi qirg‘iz milliy jamiyatlari ham faol qatnashdilar. 1917-yilning 17-iyunida Andijonda ‘Elatiya” jamiyati tuzildi. Jamiyat o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygan edi.

– Ko‘chmanchi aholini Rossiyadagi yangi davlat tuzumi g‘oyalar bilan tanishtirish;

– Ta’sis majlisiga tayyorgarlik;

– Yangi ijtimoiy-siyosiy jamiyat uchun tayanch bo‘luvchi jamoatchi kuchlarni tashkil qilish;

– Qirg‘iz, qipchoq va qozoqlarni o‘z milliy va siyosiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasi uchun yagona ittifoqqa birlashtirish g‘oyalarini tashviq qilish.

– Matbuot xizmatidan keng foydalanib, gazeta tashkil qilishdan iborat.

XX-asrning 19-20 yillarida bolsheviklar har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham, Turkiston Muxtoriyatiga xalqni qarshi qo‘ymoqchi bo‘ldilar. Bunga javoban, farg‘ona viloyati musulmon mehnatkashlarining sezdi (1918-yil dekabr) musulmon mehnatkashlarini barcha vositalar bilan muxtoriyatni qo‘llab quvvatlashlarini bildirdi.[16] Turkiston Muhtoriyatini Farg‘ona vodiysi aholisi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi to‘g‘risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Jadidlar ushbu miting va namoyishlarni asosiy tashkilotchilari bo‘ldilar. Jumladan, 1-dekabr Namangan uyezdida 100 mingga yaqin kishi ishtirok etgan namoyish

[15] O’sha manba hhps//uz
[16] O’sha manba hhps//uz

bo‘lib o‘tdi. Namoyishchilarning bayroqlariga “Yashash muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!” so‘zalari yozilgan edi.

Turkiston Muhtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va shundan keyin mahalliy aholiga qarshi jazo komponiyasining avj olishi, vodiyda istiqlolchilik harakatining kelib chiqishiga, Vatan va millatning, avvalo, Farg‘onaning asl farzandlarini erk va ozodlik uchun qo‘llariga qurol olishga majbur etdi.

Bu paytda butun Rossiyada bo‘lgani singari Turkiston respublikasida ham “harbiy kommunizm” siyosati joriy qilindi. Bu siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra xalqqa qarshi qaratilgan edi. U xususan, boyliklarni harbiy yo‘l bilan dehqonlarga katta zarba berdi. Turkistonda ham sovet tuzumi bir qator dekretlar chiqarib, oziq-ovqat razvyorstkasi (taqsimoti)ni joriy qildi. Aslini olganda, dehqondan u yetishtirgan mahsulotning deyarli hammasi tortib olindi. Bozorlar yopildi, savdo-sotiq ta’qiqlandi. 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan barcha erkak va ayollar uchun majburiy mehnat majburiyati joriy qilindi. Sovet tuzumining bunday mustamlakachilik siyosati oqibatida milliy-ozodlik harakati mintaqada kuchayib, avj olib ketdi.

Xiva xonligida jadidchilik harakati

(ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot)

1917-1920 yillarda Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat.

Eskilik bilan yangilik, mutaassiblik bilan tarkiyparvarlik o‘rtasidagi kurash Buxoroda ham XX asrning boshlarida jadidchilikni yuzaga keltirdi. 1917 yilga kelib esa u faol ijtimoiy-siyosiy va demokratik kuchga aylandi.

Abduvoxid Burxonov, Usmon Xujaev, Abdurauf Fitrat, Ota Xujaev, Mukomil Burxonov, Fayzulla Xo‘jaev, Sadrijddin Ayniylar tomonidan yangi firka paydo bo‘lib, ular bu firkaning faollaridan edilar Uning dastlabki faoliyati davlat boshkaruvi va yer-suv islohotini utkazi xarakatidan boshlandi. Ular amir hukmronligini yevropacha konstitutsiyaviy monarxiya bilan almashtirmoqchi edilar. «Yosh xivaliklar» tashkiloti 1917 -yil Xiva jadidlarining so‘l qanotidan ajralib chiqdi. Uning tashkilotchi va asoschilari Xusaynbek Matmurodov, Boboxun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar edi. Ular rus podshosi istibdodi bilan uyg’unlashgan mustabid xon zulmi, mutaassibliq, xurofot, xilma-xil soliqlarning ko‘pligidan azoblanayotgan xalqni erkin va farovon

turmushga olib chiqish, Vatanni iqtisodiy va madaniy taraqqiy ettirish yo‘lida bosh ko‘tardilar va demokratik islohotlar o‘tkazish, mamlakatda adolatli hayotni yo‘lga qo‘yishdi, xon hokimiyatiga muxolifatda bo‘ldilar. Bu muxolifat taraqqiyparvarlar asosan, xonlikdagi yirik ulamo va amaldorlardan iborat bo‘ldi. «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi taqozosiga ko‘ra xalq ommasi orasida mustahkam tayanch bazaga emas edilar. Ular o‘zlariga ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo‘lish mumkin, degan fikrga borib, siyosiy xatoga yo‘l qo‘ydilar.

Buxoro jadidchilik harakati

(ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot)

Buxorodagi milliy ziyolilarning harakati Turkiston o‘lkasiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. XX asr birinchi choragida Buxoro fuqarolarining barcha qatlamlari sermazmun va ko‘p qirrali ma’naviy-madaniy hayotni boshdan kechirdilar. Buxoro davlatidagi ma’naviy – madaniy hayotning moddiy asoslarini hamda uning ijtimoiy ildizlarini mamlakat iqtisodiyotining kuchayib borishi hamda aholi tarkibidagi ro‘y berib borgan munajimlar, o‘zgarishlar tashkil etadi. Shu bilan jahonning qator mamlakatlarida iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar ham ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Mamlakatdagi ayniqsa, Buxorodagi ma’naviy – ilmiy muhit o‘zining sermazmunligi bilan, ilohiy – dunyoviy, ilm – ma’rifat adabiyotning yuqori darajaga ko‘tarilganligi, hunarmandchilik, zargarlik, savdo tijorat, me’morchilik ishlarining o‘z zamonasi uchun ancha yuqori darajada tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Shu zaminda XX asrga kelib mamlakatda tobora kengayib borgan ijtimoiy harakat vujudga kelgan.Uning mohiyati mamlakat voqeligini amalda bo‘lgan o‘zgarishlar yorilib kelgan yangi ijtimoiy – ma’rifiy g‘oyalarga moslashtirish uchun intilishlardan iborat edi. Ham ma’rifiy – madaniy jarayonlar, ham ijtimoiy harakat mamlakat xalq ommasi uning turli qatlamlari faoliyati va shuningdek, xalqning yetuk namoyondalari salbiy harakatlari ijodi natijalari edilar. Buxoro mamlakati xalqining amir hokimiyati ag‘darilgan davrigacha rivojlanib kelgan ma’rifati, madaniyati, umuman ma’naviyatini asr davomida tarkib topgan insoniy qadriyatlar, diniy – ma’rifiy, ilmiy –ahloqiy, yaratuvchilik san’ati sohasidagi turuvchilar hamda an’analar yig‘indisi boy moddiy yozma me’roslar tashkil qilgan. “Ma’naviyat, shuningdek, o‘z vataniga, tiliga

sadoqat, uning tarixiga, chuqur hurmat, din ahli, olamu-shuaro, savob o‘rgatuvchilarni e’zozlash, ijodiga intilish bilan ajralib turar edi. Uning tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil qilgan: yosh avlodni savodxon qilish va axloqiy tarbiyalash, islom dini, shariyat, qator dunyoviy fanlar sohasidagi bilimdon, mutaxasislarni yetishtirib chiqarish jarayonlari tarbiyaviy, axloqiy mazmundagi asarlar yaratish, kutubxonalar, ulardagi kitoblar, bilimlar boyligi adabiyoti, san’at, me’morchilik obidalari, hunarmandchilikning qator turlari, shaharlar ko‘rinishlari, aholi qatlamlarining ma’rifat va hayr – sahovat yoshlarni qo‘llab – quvvatlashi va shu kabilar.”[17]

Faqat XIX asr davomida Buxoro shahrining o‘zida 60 ga yaqin madrasalar qurilgan. so‘ngra amir davrida ham madrasalar va boshqa inshootlar qurilgan. XX asr birinchi choragidapoytaxt madrasalarida 10 mingga yaqin talabalar o‘qigan, ba’zi madrasalarga 10 lab mudarrislar mashg‘ulotlar olib borganlar. Bu o‘quv maskanlari mudarrislari, imomlar va boshqa xizmatchilarning shuningdek talabalarning ham moddiy ta’minot manbaini ko‘p sonli vaqorlar daromadi tashkil qilgan. “Vaqt” jurnaliga qo‘shimcha qilib chiqarishgan “Sho‘ro” jurnalining bergan batafsil ma’lumotlariga qaraganda birinchi jahon urushi arafasida Buxoro madrasalaridan kelgan daromadlari katta mablag‘ni – to‘rt mingdan etti yuz qirq ikki ming tangani tashkil etadi. Ja’farxo‘ja madrasasining 40 yaqin mudarrislarning har biri yiliga 2 ming tanga maosh olganlar. Talaba necha vaqt va qanday o‘qiyotganiga qarab vaqf daromadidan moddiy ta’minlangan. Iqtisodi mahkam oila bolalari chetdan mablag‘ olmaganlar. Amir Muzaffar davriga taaluqli hujjatdan ma’lumki, madrasaning ayrim talabalari amirlik maoshi bilan ta’minlanganlar. Madrasada o‘qitish tizimi mazmunining yangi talabalariga moslashtirib borishi keng tus oldi. Olimxon qurdirgan madrasaga “Dorul - umri” – ilmlar maskani, o‘chog‘i – deb nom berildi, unda har xil dars beruvchi muallimlar tayinlandi. Davlat boshlig‘i hokimi mutloq tomonidan yangicha o‘quv maskanining bunyod etilishi va unga o‘ziga xos nom berilishi ro‘y berib borgan o‘zgarishlar, ular nuqtai nazaridan diqqitga sazovordir

.1.Madrasalarda o‘qitish muddati turlicha bo‘lgan, uni bitirib chiqish talabalarning diniy bilimlarini, ilm-fanni egallashlaridagi yutuqlarga bog‘liq edi. Unda ta’lim olganlar o‘z zamonasining bilimdon

[17] Tillaboyev S, Zamonov A.9-sinf O‘zbekiston tarixi // Darslik.-Toshkent: 2019. 88-bet

kishilari edilar. Buxoroda madrasa tahsillarini o‘tib – qaytganlar o‘z yurtlariga nufuzli va e’zozli kishilar bo‘lganlar.

2 Katta mehr va mahorat natijasida paydo bo‘lgan kitoblar xalq ma’naviyati durdonalarini tashkil qilgan. Buxoroning o‘zida XX asr boshida, yirik madrasalar qoshida o‘n bitta katta kutubxonalar bo‘lgan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havo namligi kuzatib borilgan, kitoblar sifatli qog‘ozlarda yozilib charim muqovalar bilan muhofaza qilingani bilan maxsus charm sandiq (yaxdon)larga saqlangan. Mamlakatning kitob boyligi chet ellardan keltirilgan nodir asarlardan ham tarkib topgan. XX asrda kitoblar kelgindilar tomonidan sotib olib keltirilgan.

Buxoroning o‘zida 170 ga yaqin madrasalar bor edi. Kichik 8 -10 hujradan to 100 ta va undan ortiq hujralari bo‘lgan madrasalar bor edi. Buxoroda Mirzo Ulug‘bek madrasasi, Garkushon, Ko‘kaldosh, Jo‘y bor, Mir Arab, Tursunjon madrasalari va bir necha eng yirik madrasalar ham bo‘lgan.

Turkiston o‘lkasi mustamlaka sharoitida bo‘lgan vaqtda millatimizning jonkuyar ziyolilari xalqni ma’rifatli va madaniyatli, ziyoli bo‘lishga undadi, aksariyat ijodkorlar o‘z asarida maktab maorifdagi yangi o‘zgarishlarga munosabat bildiribgina qolmay, o‘z faoliyatlarida ham amaliy harakatda bo‘ldilar. Shuningdek ko‘plab ziyoli jadidchilarimiz Yevropa va ayrim Sharq davlatlaridagi ta’lim tizimini Turkiston maorifiga tadbiq etdilar.

Keyingi davrda navbatma – navbat, hatto urush bo‘lib turgan 1915 va 1916 yillarda qator mutaxassis sharhshunoslar Buxoroga kelib, qo‘lyozmalar xarid, Rossiyaga olib kelganlar. O‘rta Osiyodan ketilgan mingga yaqin qo‘lyozmalarning ko‘p qismi Buxoroga xarid qilingan. 1915 va 1916 yillarda Buxoroga sharqshunos V.A.Ivanov kelib Petrburg Osiyo muzeyi uchun 1100 jilddan ortiq nodir kitoblarni olib ketgan va ular muzeyning “Buxoro koleksiyasini” tashkil qilgan. Ayniqsa Abdurauf Fitrat va uning bir guruh safdoshlari o‘qishni tugatib, Buxoroga qaytganlaridan so‘ng, ilmiy – ma’rifiy xarajat qizg‘in tus olib yangi maktablar xususiy tarzda ochila boshlandi.

Rossiyada 1917 yil fevral burjda inqilobi Buxoro amirligidagi siyosiy muhitga ta’sir qilmay qo‘ymaydi. Endi jadidlar ochiqdan – ochiq siyosiy talablar bilan chiqa boshladilar. Abdurauf Fitrat jadidlarning siyosiy dasturini ishlab chiqib, Buxorodagi amirning mutloq hukumronligini konstitutsion tuzumga asoslangan hukumronlik bilan almashtirishni taklif qildi. Amir tomonidan rad etilgan, jadidlar

Toshkent va Samarqandda jon saqlab qolib siyosiy, kurashni davom ettiradilar. 1920 yil sentyabrda frunze boshliq qizg‘in qo‘shin yordamida Buxoroni vayron etadilar. Haqiqatdan ham shaklan Buxoro xalq Respublikasi tashkil etiladi, ammo sho‘ro qo‘shin kuchlari respublikani tark etishmaydi. Buning oqibatlarini Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev va boshqa jadid arboblari bir necha yildan keyin his qilishadi. 1923 yilda Fayzulla Xo‘jaevning Moskvada uzoq davolanayotganligidan foydalanib, sho‘rolar tashabbusi bilan o‘tqazilgan Buxoro markaziy Ijroiya: Qo‘mitasining yig‘ilishida Abdurauf Fitrat, Ataulla Xo‘jaev, Mo‘injon Aminov, Sattor Xo‘jaev singari erk sevar rahbarlar bo‘lmag‘ur tuhfalar bilan obro‘sizlantirilib, lavozimlaridan bo‘shatildilar va Buxorodan badarg‘a qilindilar. Fitrat 1923 – 1925 yillarda Moskva, Lelingradda yashadi. Badiiy va ilmiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi. Fayzulla Xo‘jaev hukumat boshlig‘i etib sayinlanishidan keyin Fitrat Samarqandda, Toshkentda yashadi. Madaniy – sha’rifiy faoliyat bilan shug‘ullandi. Lekin mustaqillik orzu – umidlari u yaratgan badiiy asarlarda o‘z ifodasini topdi. Fitrat 1937 yil hibisga olinib, 1938 yil Toshkentda millatimizning boshqa erksevar farzandlari qatori otib tashlandi. Bolsheveklar Abdurauf Fitratning jismini yo‘qotgan bo‘lsalar ham u yaratgan buyuk asarlarni xalq xotirasidan o‘chirib tashlay olmadilar, endi bu asarlar badiiy me’rosimizning bebaho durdonalari sifatida ardoqlanib qayta nashr etilmoqda.

Buxoroning yana bir suyukli farzandi Fayzulla Xo‘jaev 1896 yilda savdogar oilasida tug‘ildi. Ubaydulloxo‘ja o‘g‘lini zamonaviy tijoratchi qilib tarbiyalash maqsadida 1907 yilda Moskvaga olib borib etuk muallimlar tarbiyasiga topshiradi. Fayzulla bu erda uch yil ta’lim olgach Buxoroga siyosiy tuzumni o‘zgartirish zaruriyati to‘g‘risida muayyan fikrlar bilan qaytadi. Jadidlar partiyasini tashkil etadilar va ishni amirlikdagi maktab – maorifni naloh qilishdan boshlaydilar. Bu yerda Abduvohid Burhonov, Usmonxo‘ja Hamidxo‘ja singari Turkiyada tahsil ko‘rgan yoshlar bolalarga ta’lim beradilar. 1920yil sentyabrida qizil qo‘shin yordamida amirlik tuzilishi ag‘darilganidan so‘ng esa sho‘rolar mafkuraviy g‘uzum ko‘rsata boshladilar. Bu davrga kelib u sho‘rolar hokimyatida O‘zbekistonning milliy mustaqilligiga erishishi hamxayol ekanligini tushungan edi. Hali 20 yillarning o‘rtalarida buning oqibatida respublikada unga qarshi siyosiy kompaniya boshlanib, ayrim ilgaridagi tanaffuslar bilan 1937 yilgacha davom etdi. Oxir oqibatda U. Nikolay. Buxoroni boliq guruhining a’zosi sifatida hibega olinib 1938 yil martida Moskvada otib tashlandi. Jamiyatda faoliyat yuritgan tarixchilardan biri

– Abduvohid Burhonovdir. Munzim taxallusi bilan she’rlar bitgan bu Buxorolik ziyoli bir umr xalqqa xolisona hurmat qilish ishqi bilan yashadi. Shaharning Muhammad Sharif madrasasi xujralarning birida faqrona turmush kechirgan. Mirzo Abduvohid otasidan meros qolgan yordam olinadigan butun daromadni ma’rifiy maqsadga sarf etadi. Uning dastxati nihoyatda nafis bo‘lib, Buxorolik biron Mirzo kollegrafiya san’atida unga teng kela olmasdi. Mirzo Abdulvohid yangi maktabning afzalliklarin namoyish etish maqsadida 1908-yilda ota – onalar, din arboblari amaldorlarni xususiy maktabga taklif qilib, bolalarning ko‘rgazmali imtihonini o‘tkazdi. Imtihon paytida uning nazoratchilari ikkiga bo‘linib qolishdi.

Buxoroning taqimi muftilaridan biri bo‘lgan mullo Ikrom boshchiligidagi gruh yangi maktab faoliyatini yuksak baholab, ularning tarmog‘ini kengaytirishni, hatto madarsa ta’limini ham shu usulga ko‘chirishni tavsiya etdi. Rossiyadagi inqilobdan so‘ng, jadidir yangi bir safda turib, amirlikda demokratik o‘zgarishlarni talab qila boshladilar. Jadidchilar harakati ikkiga bo‘linadi: Mirzo Abdulvohid boshliq o‘n guruh qurbonlar sonini kamaytirish uchun ko‘p sa’iy – harakatlar qildi. Uning bevosita ishtirokida respublikada yangi maktablarning keng tarmog‘i vujudga keltirilib, ularda ta’lim olishga xotin – qizlar ham jalb qilindi. Mirzo Abdulvohid mana shunday fidoiy kamtarin inson bo‘lib, butun umri mustaqillikka teng yo‘l bilan erishish orzu – umidlari bilan yashadi. U 1934 yilda uzoq davom etgan kasallikdan so‘ng vafot etdi. Shu davrning yetuk namoyondalaridan biri Sadriddin Ayniy (1878-1954) taniqli yozuvchi va jamoat arbobidir. Buxoroda tug‘ilib o‘sgan Ayniy 20-asrning boshlarida madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan bu shaharning ijtimoiy – ma’naviy muhitida kamol topdi. U shaharda eng avvalo Buxorolik ilg‘or ziyolarining fikrlarini band etgan, teran g‘oyalarni qunt bilan o‘rgandi. Ularning ta’sirida o‘zining adabiy tarixiy – publitsistik asarlarini yaratdi.

Sadriddin Ayniy Buxoro amirligi tarixiga katta e’tibor bilan yondashadiki, uning asarlari manbashunoslarimiz tarixchilar uchun g‘oyat qimmatli ahamiyatga ega. U tarixiy mavzularda qator tadqiqotlar yaratdi. Shu bilan birga uning xalqining urf – odati, xulq – atvori ijtimoiy munosabatlar to‘qnashuvi, kishilarning adolat uchun kurushchanligi haqqoniy yoritib bergan. Badiiy asarlari Buxoro tarixi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniyning Buxoro tarixiga old yirik asarlar sirasiga “Mang‘it amirlari tarixi” va “Buxoro inqilobi tarixiga” doir materiallar nomli kitoblarni kiritish mumkin. “Mang‘it amirlari tarixi”

bir yarim asr Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar dinostiyasi tarixiga bag‘ishlanadi. Ayniy bu asarni Ahmad Donishning “Mang‘it dinastiyasi” saroy kotibi Mirzo Azim Soliy Bo‘stoniy solnomalari va boshqa manbalarga asoslanib yozgani uchun bunga tarixiy asar deb qarash mumkin. Ayniy yuz bergan voqealarni xolisona o‘z shaxsiy kuzatuvi asosida yozgani uchun ham bizga tarixiy manba sifatida juda ahamiyatlidir. Ayniyning Buxoro tarixiga bag‘ishlangan asari “Buxoro inqilobi tarixiga old materiallar” kitobidir. Bu asar xalqni ma’rifatli qilish va yangi usuldagi maktablar tarafdori bo‘lgan jadidlar qolaversa yosh buxoroliklarning rolini yaxshi tushunishimizga yaqindan yordam berdi. “Buxoro inqilobi tarixiga old materiallar” 1921-yildan yozilgani uchun ham muhimdir. Jadidlar harakatida ishtirok etgan va ular bilan doimo birga bo‘lgan Sadriddin Ayniy ma’lumotlarni to‘playotgan vaqtida jadidchi – yosh buxoroliklarga juda to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi. 1930 yil oxirida yozgan “Qisqacha tarjimai hol” ida bizga ma’lum hol jadidlarga noto‘g‘ri baho bergan. Shu davrning ziyolilaridan biri Abdulqodir Muhiddinov 1892 yilda Muhiddin Mansurovning xonadonida tug‘ilgan oilada uch o‘g‘il voyaga etib ularning barchalari jadidchilik harakatida faol qatnashdilar. Abdulqodir Muhiddinov eng faol yosh Buxoroliklardan biriga aylanib, amirlik tuzishni ag‘darish uchun ko‘p sa’yi harakatlar qildi. U o‘lkada koperativ harakatini rivojlantirishi tashabbuskori bo‘lib, “Birinchi Buxoro o‘rtoqligi” aksionerlik jamiyatini tashkil qildi va sanoat aloqalarini kengaytirishga kiritdi. 1921 yil avgustda BXRMI qo‘mitasi raisi vazifasida ishlayotgan Abdulqodir Muhiddinov siyosiy dasturini Buxoro xalq Respublikasi II qurultoyi minbaridan turib rasman ma’lum qildi. 1934 yilda Abdulqodir Muhiddinov Millatchilikda ayblanib otib tashlandi. Rossiyaburjua – inqilobidan keyin Musajon Saidjonov va Abdurauf Fitrat hukumatga telegramma yo‘llab, Buxoro amiri jadidlariga erkinlik berish uchun unga ta’sir ko‘rsatishni iltimos qiladilar. Musajon Saidjonov jadidlar o‘rtasida birinchilardan bo‘lib amir hokimiyati bilan siyosiy to‘qnashuvlarga qarshi chiqdi. 1920-yilda jadidlar bilan aloqani buzib, ilmiy – ma’rifiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. 1925 yildan keyin O‘zbekiston tarixiy obidalarini muhofaza qilish qo‘mitasiga boshchilik qildi. U 20 yillar boshida Abdurauf Fitrat bilan hamkorlikda Buxoroda kutubxonachilik muzey ishini yo‘lga qo‘ydi. Milliy san’atni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Musajon Saidjonov nafaqat Buxoro balkim Samarqand, Xiva, Shaxrisabe tarixining bilimdonlaridan edi. Afsuski, u kelgusi avlodlarga meros sifatida qoldirgan. “Buxoro tarixi”, “Shayboniynoma”, “Buxoro

atrofida joylashgan maqbaralar", "Chil duxtaron", "Masjidi Kalon" va yana o‘nlab asarlar hamon qo‘lyozma tarzida Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. 1937 yilning oxirida Musajon Saidjonov boshqa safdoshlari singari ko‘p o‘tmay qatl etildi. Mustaqilligimizning 9 yili may oyining 12 muborak juma kuni ufqda bosh ko‘targan quyosh poytaxtimiz markazidan oqib o‘tuvchi Bo‘zsuv qirg‘og‘ida ajib bir manzara yog‘dulari bilan yoritdi. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan bu yerda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Shaxidlar xotirasi" xiyoboni barpo etildi. Bunday inshoat uchun Bo‘zsuv daryosining yoqasi tanlagani bejiz emas. 30 yillarning oxirida qorong‘u tunlarda shu yaqinda joylashgan xibexonadon o‘nlab begunoh maxbuslar keltirilib, otib tishlanganlar. Xalqimizning suyukli farzandlari Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy,Abdulhamid Cho‘lpon, Atoulla Xo‘jaev, Abdulqodir Mihiddinov, Musajon Saidjonov, Said Ahroriy o‘nlab, yuzlab va minglab istiqlo fidoiylari mana shu mudhish ko‘prik ostida qatl etilganlar. Mustaqilligimizning dushmanlari yarim asr mobaynida ularning muborak ismi – sharifini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlash uchun hamma ishni qilishdi, ularning farzandlarini tahqirlab, xo‘rlashdi. Ammo haqiqat o‘tda kuymaydi, suvda cho‘kmaydi va qachonlardir ro‘yobga chiqadi. Nodir kitoblar, qo‘lyozmalar, fashantlar, osari – atiqalar savdosi tarixan ma’rifiy jarayonga dahldor mamlakatlar uchun xos bo‘lib kelgan Buxorodagi kitoblar osori – aqidalar buyumlarni sotib olib Rossiyaga keltirganligiga kelsak, bu yo‘l bilan u yerdagi kutubxonalar va muzeylarni boyitish ko‘zda tutilganligi tab0iy xol edi. Ulug‘ davlatchilik siyosati, sharq sivilizatsiyani teran mazmuni va tutgan mavqeini yetarlicha tushunib yetmaslik va mensimaslik yana shunda ko‘rinadi. Qator hollarda eng nodir kitoblar qo‘lyozmalar, asori – atiqa buyumlar asl qiymatlardan ancha arzon narxlarda sotib olib ketilgan. Madaniy – moddiy sohalarda aloqalar ikki tomonlama, teng va o‘zaro manfaatini asoslarda olib borilmagan, shu nuqtai nazardan Buxoro madaniy boyliklariga ziyon yetkazilgan. Mamlakatda kechgan voqealarga kelganda shuni ta’kidlash lozimki, kitoblar, asari – atiqalar savdosi ajnabiy xaridorlar uchungina emas, birinchi navbatda mamlakat fuqarolari ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan, kengayib borgan.

Buxoro adabiyot, musiqa, va ashula sa’nat tarixnavislik, zargarlik buyumlarini yasash ularni topish madaniyati yuqori darajada ko‘tarilgan edi. Ma’rifatchi va tarixnavis Ahmad Donish (1827-1897) shoirlar

Shohin (1895-1894) Hayrat (1878-1902) xalq ommasi ongida o‘chmas iz qoldirganlar. Ahmad Donishning “Navodirul - vaqog” hamda “Buxoro amirlarining tarjimai hollari” asarlari, Shohin Hayrat va boshqa shoirlarning she’rlar va qasidalari mamlakat ichidagina emas, O‘rta Osiyoning ko‘p yerlarida mashhur bo‘lgan va sevib o‘qilgan. Mirzo Some’ning “Mong‘in amirlari tarixi”ni yozish, Abdurauf Fitrat (1886-1937) S.Ayniy (1878-1954) va boshqalarning ijodiy va ma’rifatchilik faoliyatlari XX asr boshiga to‘g‘ri keldi mamlakat hayotida jumladan ma’naviy – ilmiy hayotida va amirning tashqi dunyo bilan munosabatlarida islom dinining tutgan o‘rni an’anaviy ta’sirchanva keng qo‘llashli bo‘lgan. Musulmon dunyosida, ayniqsa O‘rta Osiyoda Buxoro Islom dini ta’limotining eng rivojlangan markazi sifatida katta obro‘ qozongan. Turkiya sahifalari bilan bir qatorda Buxoro amirlari musulmon dunyosining hukumronlari sanalgan.1 Mamlakatning ichki hayotida musulmon dini uning aksar namoyondalari g‘oyaviy – tarbiyaviy va ma’rifiy faoliyatini amalga oshirganlar. XIX asr oxiri – XX asr boshidagi Buxoro mamlakatidagi boy va sermazmun ma’naviy va madaniy hayot ayni zamonda bir joyda to‘xtab qolgan hodisa emas edi. Xalq ommasi, uning iste’dodli namoyondalari faoliyati tel ellardan kirib kelgan yangiliklar mamlakatdagi turmush tarzining qator sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib uning darajasi ko‘tarilib borishini ta’minlaydi, rivojlanish zaminini kengaytiradi. Qo‘lyozma va qo‘lda ko‘chirilgan kitoblar chiqarish bilan birga bosma chop etish bo‘yicha qo‘yildi va kengayib bordi.

Mamlakatda muntazam turli xil kitoblar chiqarildi, kitoblar savdosi yangi asosda kengayib bordi. Masalan, 1909 yilda Litografiya usulida Buxoroda Qutyuaddin Roziyning “Mustasar Falsafa” risolasi. 1910 yilda Mirzo Siroj Hokimning “Buxoro ahliga tuhfa” risolasi, Kogonda shu yili mamlakatning Muhammad Ikrom Ibn Abdu Samoi (1917-1925) ning “Tunda va o‘ngda uchishlar” risolasi nashr qilindi. 1912-1913 yilda “Buxoroi Sharif” gazetasi nashr qilingan. Somiy Rossiyadagi 1905 yil voqealarini beboshlik deb ta’riflab ular Buxoroning olib borgan tijorat ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Buxorodagi rus – tuzem maktabida uqituvchining 1904 yildagi maoshi 800 oylik maoshi 66 so‘mni tashkil qilgan. Buxoroda bu davrda yuqorida aytib o‘tilganidek siyosiy – ijtimoiy harakatlar yuzaga keldi. Buning asosiy sababchisi iqtisodiy tanglik, xalqning og‘ir ahvoli edi. Amirlikdagi bunday holat Buxoroning ilg‘or ziyolilarining chor mustamlakachilariga va amir hukumatiga qarshi kayfiyatini vujudga keltirdi. Ular o‘zlarini jadidlar jadid – arabcha

“yangi” demakdir deb atadilar. Buxoro, Xorazm va Turkistonda jadidchilik harakati – milliy mustaqqillik harakati sifatida 1900 yillardan boshlab shakllandi. Jadidchilik harakati oddiy talablar bilan boshlanib keyinchalik mavjud tuzumni tanqid qilish bilan yakunlandi.

Ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqeliklar ma’rifatparvar adiblarimizning she’rlarida aks etishi

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston hayotida mislsiz o‘zgarishlar voqe’ bo‘ldi. Jaholat, boshqaruvdagi boshboshdoqdik, ilm-ma’rifatning qadrsizlanishi, ijtimoiy-maishiy tanazzullar alaloqibat milliy mahdudlik, mustamlakachilikka yo‘l ochdi. Ming yillardan buyon mavjud bo‘lgan qadriyatlar, ajdodlarning buyuk merosi, dinu diyonat toptaldi. Bu kabi davomli tazyiqlar, so‘z va vijdon erkinligining bo‘g‘ilishi tabiiy ravishda vatanparvar, ma’rifatparvarlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi. Dastlab maorifni yangilash, ta’lim sifatini oshirish, eski o‘qitish tizimidan mutlaqo voz kechishdan boshlangan harakat keyinchalik, milliy matbuot, milliy adabiyot, milliy teatr kabi o‘nlab yangi sohalarga qadar o‘sib bordi. Natijada, milliy uyg‘onish davrining asosiy belgilari jamiyatning turli jabhalariga keng yoyildi. Millat taraqqatiyotining asosiy omili sifatida yangi usuldagi milliy maktablarga asos solish orqali kelajakni mutaraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo‘shish maslagi ko‘plab ziyolilarni birlashtirdi. Jadidlarning har bir faoliyati asosida yurt ravnaqi, erki, uyg‘ongan millat orzusi turar edi. Shuning uchun ham ularning har biri ham maktablar ochish, ham yangi darsliklar yozish, ham milliy matbuotda maqolalar bilan chiqish, ham badiiy adabiyot bilan shug‘ullanish kabi qiyin vazifalarni parallel olib bordi. Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, “yangi estetikaning shakllanishi tom ma’noda dialektik qonuniyat asosida bo‘ldi”[18].

oqealar ko‘plab ijodkorlarni qalamni qurol qilib, asarlari bilan milliy ozodlik kurashida qatnashishga chorladi

Ochlik, qaxatchilik, benihoya jabr-zulm, buning ustiga mardikorlikka olish haqidagi farmon xalqning noroziligi va nafratini kuchaytirib yubordi. 1916 yilning yozida boshlangan xalq qo‘zg‘oloni shu darajada keng quloch yoydiki, Turkistonning deyarli barcha shahar va qishloqlarini qamrab oldi. Unda o‘zbek, tojik, qozoq, turkman,

[18] Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. – Б.77.

qirg‘iz, qoraqalpoq va uyg‘urlar faol qatnashdi. Qo‘zg‘olon aks-sadosi butun Rossiya imperiyasi bo‘ylab tarqaldi.

13 iyuldagi Jizzax qo‘oloni shu qadar miqyos kasb etadiki, tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar to‘pga tutilib, butunlay yondirib tashlangan. Mingdan ortiq kishi qamoqqa olinib, ularning ko‘pi qatl etilgan va surgun qilingan. To‘pga tutilgan shahar, vayron bo‘lgan xonadonlar, shafqatsiz zulm va daxshatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan otashin shoir Hamid Olimjon o‘shanda 7 yashar bola edi. U keyinchalik o‘sha mudxish kun va tunlarni xotirlab bunday yozgan edi:

Men bir qora tunda tug‘ildim,
Tug‘ildimu shu on bo‘g‘ildim.
Men tug‘ilib ko‘z ochgan dunyo
Xarob edi, buzg‘un, benavo,
Vayronada izillardi el,
Menga qondosh, jondosh bo‘lgan el
Gado edi, qashshoq edi, xor –
Qalbi to‘la nafrat, alam, zor.

Ana shu xorlik, azob va uqubatlar xalqning dilidan tiliga ko‘chib, she'r va qo‘shiqlarga aylandi. 1916 yilda front orqasidagi qora ishlar uchun mardikor olinishi munosabati bilan “Poezdingni jildirgan…”, “qorda qarag‘ay kesganman…”, “Nikolay – qon jallod”, “Saidahmad, toming baland” singari qo‘shiqlari butun Turkistonga yoyildi.

Avloniy, Sidqiy Xondayliqiy, Akbariy Toshkandiy, Mulla Murtazo bin Ismoiljon, Javg‘ariy, Lutfulla Olimiy, Anbar Otin, Mutriba, G‘ayratiy, Tavallo kabi ijodkorlarning aruz vaznida bitgan mardikorlik haqidagi she'rlarini nazardan kechirsak, ularda mazmun tamomila o‘zgargani, yangilangani ma'lum bo‘ladi. Ya'ni vazn va ohang an'anaviy, biroq, mazmun va mavzu esa yangi. Mardikorlik mavzuidagi she'rlarda majoziy tasvir o‘rnini hayotiy-realistik ifoda, an'anaviy ramzlar o‘rnini real shaxs va voqelik talqini egallagani ham buni tasdiqlaydi.

“Furqat ijodidagi “Gimnaziya” she’rida shoirning ma’rifatparvarlik g’oyalari aks etganligini guvohi bo‘lamiz albatta. Bu yo‘nalishdagi she’rlarida shoir rus ta’lim-tarbiya ma’orifini emas, Rusiya orqali o‘lkaga kelgan Yevropa ta’lim tizimidag ilg’or jihatlarni ma’qullaydi, tavsif etadi.

“Gimnaziya” she’rida shoir bu ta’lim dargohining umumiy xususiyatlari, ya’ni tuzilishi, o‘tiladigan darslar, sinf xonalari, turli xonalar va jihozlar, o‘quvchilarning taomlanishi uchun oshxona ham mavjudligi haqida so‘z yuritadi.

Tomoshodin xirad ko‘zi qamoshur,
Hama ashyoyi hikmat izdihomi.
Tilidin soiri asbobi hikmat
Eshitmoq mumkin Aflotun payomi.
Qolib hayratda qilduk ofarinlar
Bo‘lur mundog’ shahlarni nizomi.
Esizkim, bizning o‘tmush xonu beglar
Kechib ishratda zoyi’ subhu shomi.
Keturmay yoniga bir ahli donish
O‘ziga xos etib necha avomi.
Etinchi, sakkizinchi xonasindo.

Shoirlarimiz gimnaziyani ma’rifat o‘chog’i, ta’lim maskanining yangi va ilg’or shakli deb hisoblashgan. Millatning taraqqiyoti va ma’rifati uchun bunday ziyo maskanlari zarur degan fikrda bo‘lganlar.

Biroz o‘z bilgan ilmu fanlaridin,
Ko‘ring deb, ayladilar oshkoro.
Birinchi xonada rusiy zaboni,
O‘qulurkan ikkinchida farangcho.
Uchinchi darsxona ilmi lotin,
Beshinchi xonada ta’lim nemiso.
O‘qub bir jamiyat sa’y ila doim
Shashum darsxonada islovanisko.
O‘qulmay hech ilme qolmas erkan

Shuningdek, Lutfulla Olimiy, Muhiddin Ibrohimiy, Rafiqiy, Javhariy, Xudoyberdi shoir kabi ijodkorlar ham 1916 yil voqealariga o‘z munosabatini bildirib asarlar ijod etgan Farg‘ona adabiy muhiti vakillari sirasiga kiradi. Bulardan Ibrohimiy, Olimiy va Rafqiiylarning “Loshmon” to‘plamiga kiritilgan she'rlari 1916 yilgi milliy ozodlik harakatining she'riyatdagi dastlabki ifodasi sanaladi. 1916 yili 14oktyabrda, mardikorlikka olish jarayoni qizg‘in ketayotgan bir paytda, Muhiddin Ibrohimov muallifligida “Loshmon” to‘plami nashrdan chiqqan. To‘plam 20 betdan iborat. “Loshmon” tashqaridan nazar solinganda chor senzurasi talablariga mos tushar edi. Unga kiritilgan asarlarni umumiy holda “vatanparvarlik” ruhidagi she'rlar deb atash mumkin. Chunki “Ko‘ngilli firqamiz”, “Turonlik tilidan”, “Ko‘ngillilarg‘a”, “Ketarman”, “Yo‘l ustinda”, “Ko‘ngillilar tilindan” deb nomlanuvchi oltita she'rda ham Vatan uchun har qanday mehnatga tayyor turish, hatto zarur bo‘lsa, jonini ham fido etish va mardikorlikka safarbarlik targ‘ib etiladi.

I.II. Xotin-qizlar timsolida jaholat va ma’rifat talqini.

Ma’lumki, ma’rifatga yo‘g‘rilgan fikr, g‘oya har qanday shaxsni jamiyatni turli tajavozlardan himoya qila oladi. Xalqimiz ma’naviy va axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy iftixor, bag‘rikenglik kabi xususiyatlar ustuvordir. Ularni izchil targ‘ib qilib borish bilan ma’naviy tahdidlarga g‘oyaviy zarba berish mumkin.

Ma’rifat – kishilarning ong-bilimini, ma’daniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya hamdir. Demak, jaholat bilan ma’rifat bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini siqib chiqaradigan tushunchalardir. Ma’rifat insonni doimo to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Ma’rifat kimgadir ko‘z-ko‘z qilinadigan, ortida qandaydir ta’ma yashirin bo‘lgan narsa emas. Jaholat kabi kuchlarga doim ma’rifat qarshi chiqa oladi. Chunki, ma’rifat-to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kuch. Ma’rifat - insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonidir.

Sovet tuzumida ko‘pgina xalqlarni ma’naviyatga va ma’rifatga chorlagan ko‘pgina vatandoshlarimiz o‘ldirilgan. Ular yomon ishlari uchun emas, balki jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashganlari uchun otib o‘ldirilgan. Masalan, Abdulla Avloniy bobomizning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.” Bu chuqur ma’noli so‘zlarning tagida qanchadan-qancha ma’no-mazmun yotibdi.

Xotin-qizlar savodxonligi, millat tarbiyasida marifatli onaning darkorligi she’riyatga olib kirildi. Johil an’analar ta’sirida tutqunlikka mahkum bo‘lgan ayollar masalasi, ularning erkinligi yurt erki orzusi bilan parallel tasvirlandi. 1917- yillarga kelib, she’riyatda maqsadni ramzlar orqali anglatish, fikrlni ochiqdan-ochiq emas, tuyg’ularga o‘rab berish holatlari ko‘rina bordi. Bunda asosiy ideal turi sifatida ijtimoiy jurlik mavzusi olindi. Yurt ozodligi, istibdoddan qutulish orzusi to‘g’ridan to‘g’ri zamonaviy she’riyatda aks etdi.

XX asr jamiyatidagi chirkin va qora vaziyatlar, ayollarning kamsitilishi, jamiyat va hukumat ishlaridan ayro tutilishi, huquq va manfaatlarining toptalishi, nafaqat jamiyat tomonidan, balki, o‘z oila a'zari, otasi, turmush o‘rtoqlari tomonidan turli bosimlarga uchragani, ta'lim hamda tarbiyadan yiroq tutilishi to‘g‘risida ma'lumot berilgan.

Qiz bolalar 10–11 yoshda maktabga qatnashni to‘xtatganlar. Jamiyat turli qatlamlarida bolalarga ayniqsa qizlarga oilada ta’lim berish tajribasi keng tarqalgan.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo‘nalishini asosan jadidchilik harakati

belgilagan edi. XX asrlarda jamiyatda o‘ta etgan mutaassiblik, jaholat, ilmsizlik, ma'rifatsizlik avj olgan edi. Sho‘ro hukumati bor kuch-g‘yrati bilan xalqni, millatni jaholat tomon olg‘a boshlardi. Ma'rifat va ilm yog‘dularini sochmoqchi bo‘lgan bir qator shaxslar esa xalq, millat dushmaniga aylantirilib qamoqqa ashlanar yoki og‘ir azoblarga duchor bo‘lar edi. Jadidlarning falsafiy-estetik va pedagogik qarashlarining O‘rta Osiyoda keng tarqalishi va katta ijtimoiy hodisaga aylanishida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk shaxslarning xizmati katta bo‘ldi. Jumladan, jadid-ma'rifatchilari o‘z dasturida millat va mamlakatning dunyoviy taraqqiyoti yo‘lida to‘siq bo‘lib kelayotgan diniy fanatizm va qoloq rasm-rusumlarga qarshi chiqish, eski maktablarni yangi o‘quv usullari bilan isloh qilish, xalq ommasining savodini chiqarish maqsadida matbuot masalalariga jiddiy e'tibor qaratib, yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji ustida qayg‘urish; Yevropa madaniyatidan orqada qolib ketmaslik uchun zamonaviy milliy teatr tomoshalarini tashkil etish; xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi ahvolini o‘zgartirish maqsadida turli ijtimoiy islohotlar yo‘lini qidirish singari muammolarni o‘rtaga tashladilar.

Ma’rifatparvarlar dramaturgiyani eng sermahsul va ommabop janr sifatida rivojlantira olishgan. Ular shu yo‘l orqali mutaassib bosqinchilarga va o‘z holidan bexabar xalqqa oyna tutishni maqsad qilgan edilar. Ma’rifatparvarlik g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’sir ko‘rsatishi kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham ma’rifatparvarlik adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o‘z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar.

Ayollar turmushidagi haqsizlik mutelik yangi zamon ijodkorida norozilik kayfiyatni uyg’otgan, muammoning faqatgina she’riyada sig’masligini sezgan adib nasriy asarlarida ham masala yechimiga javoblar qidirgan edi. “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida Cho‘lpon Shafoatxonning qismati ortida aslida mutaassiblik, ko‘r-ko‘rona e’tiqod turganini mahorat bilan ochib bergan. Asar qahramoni Samarqand akaning “bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg’a tutdik, sadag’alari ketsun!” degan gapidan xotini Qumribush “oqardi, ko‘kardi, suvratdek qotib devorga suyanib qoldi...”.Qumribush qaroriga mana shunday javob qaytarishi mumkin xalos, uni o‘zgartirishga, qizining taqdiriga aralashishga haqli emas. Qumribush ruhiyatidagi “oqarish, ko‘karish, suvratdek qotib devorga suyanib qolish” shaklidagi isyon Qurbonbibi qalbida junbushga keldi. Zamon oqimiga qarshi bormaslik, er-xotin

munosabatidagi tubsiz jarlik, dardini to‘rt devordan oshirib ayta olish imkonining o‘ta cheklanganligi uni aqldan ozdiradi. Adib davr fojiasini ayollar taqdiri vositasida tasvirlaydi.

“**Biz va siz” dramasida ayollarga bo‘lgan munosabatni quyidagi matnlarda ko’rishimiz mumkin**

• ***Eshon*** *– “Gapirma, e bezot! Mening pulim bila bo‘yning marjon ko‘rdi-ku! Tag‘in nima noz qilasan?”*

• ***Maryamxon-*** *“Ol, bisotingni mening gavharim bor, quvvatim bor, mening ko‘zimga ko‘rinmaydi mundaqa narsalar! Men bezor mundog‘ zaharlik davlatdan, matlabsiz hayotdan.”*

Ma’rifatparvarlik adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi, hurkak ohu kabi go‘zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi.

Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo‘lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo‘lishiga mamlakatdagi zulm-zo‘rovonlik ustuvor ekanligidadir.

Birgina asar qahramoni Zebi timsolida o‘sha davr ayollarining mash'um taqdiri, o‘zgalar tomonidan bo‘g‘ilayotgan kelajagi, toptaloyotgan sha'ni va g‘ururi, ko‘ayotgan jabr sitamlari ko‘rsatilgan. Ayol kishi ta'lim olishi shunchaki hayol, orzu kabi edi. Ularni jaholatga yetaklayotgan qoloq va ko‘zlari parxa bilan yopilgan jamiyatga mazkur asarlar bilan oyna tutilib, ko‘zlaridagi pardalar olishga harakat qilingan.

Cho‘lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xushovozi bilan barchaning e’tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Bu asar orqali Cho‘lpon Zebi va unga o‘xshagan jabrlangan

ayollar taqdiriga achinadi. Ularni ozod bo‘lishini istaydi. O‘z taqdirini o‘zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma’rifatli bo‘lishini istaydi.

Jamiyatdagi barcha ayollar boshqalar ra’yiga ko‘ra taqdiridan rozi bo‘lib ketib, alaloqibat, baxtsizlikka mahkum bo‘lib qolayotganlarini qoralaydi. Cho‘lponning orzusi ayollar hurligi, ilm-ma’rifatli bo‘lishidir. Ular ham inson sifatida o‘z xohish istaklariga ko‘ra yashashi, ilm olishi, oila qurishini istaydi va orzu qiladi. Jamiyatni ogohlikka da’vat etadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (Nihoniy taxallusi bilan ijod qilgan)ning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asari qahramoni Maryam timsolida ham ko‘rishimiz mumkin. Maryam ilmga tashna ayol timsoli. “Yangi saodat” asarida Olimjonning ma’rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o 'z baxtidan boshqa kishining ham bahramand bo‘lishini tasvirlagan bo‘lsa, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” fojiasida ma’rifatli insonning jaholat va g‘aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko‘rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza “Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi” deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o‘zlariga munosib bo‘lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini hazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko‘rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o‘z zamoniga sig‘may qolgan yoshlar o‘rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan yoyidek uchib boradi-da har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi. Bundagi Maryamxon obrazi ham ma’rifatga tashna ayol timsoli sifatida gavdalanadi.

Ikki adibimizning ijodida ham ayollar timsoli mohirona tarzda ochib berilgan, bu obrazlar orqali yozuvchilar jamiyatdagi og‘riqli nuqtalarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini deyarli barcha asarlarida o‘z mafkuralari orqali namoyon etadi. Ya’ni jamiyatda oilaga, ayolga bo‘lgan e’tibor ijobiy tomonga o‘zgarmas ekan, jamiyat ham o‘zgarmasligini aytib o‘tadilar.

Cho‘lpon maqolalaridagi jamiyat va o‘zbek ayoli taqdiri masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ayollarning ham ilm o‘rganishga, jamiyatda teng huquqli bo‘lishga ega ekanligi ta'kidlangan.

Yoshlar taqdiriga kuyingan Cho‘lponni o‘zbek ayoli qismati befarq qoldirmasligi tabiiy hol edi. Shu bois ham Cho‘lpon bunday yozadi: «Bechora o‘zbek xotuni! Senga 12 yoshingda kafan kiygizgan janoblar tug‘ilgan kuningdayoq seni irimlarning bema'ni quchoqlariga

irg‘itadurlar! Bilmaysen. Bilmaysen. Bilmaganing uchun sen hali ko‘p yillar shu irimlar uchun eng toza umidlaringni so‘ldirgaysen! Sening bilmog‘ing, o‘rganmog‘ing uchun keng yo‘l ochilgan shu zamonda senga ochilgusi maktablarning ta'minoti uchun mahalliy mablag‘ning ko‘payishini tilaylik!». Cho‘lponning bu yonib-kuyishlari bekorga emasdi, chunki u o‘zbek ayollari orasida ham zehni o‘tkir, zukko va iste'dodli, jasoratli ayollar borligini bilardi.Cho‘lpon “Yorqin turmush” jurnalining 1936-yil 4-5-qo‘shma sonida chop ettirgan “Uvaysiy” nomli maqolasida Jahon otin Uvaysiyning jasorati va iste'dodi haqida yozadi. Bundan ko‘zlangan maqsad ham aslida ayollar masalasiga e'tibor qaratmoq kerakligini yana bir bor yodga solmoq bo‘lgan. Maqolada shoiraning asli Marg‘ilondan ekanligi, u yerdan xon saroyidagi shoirlar bazmida qatnashish uchun Qo‘qonga kelganligi, uni saroyga kiritishmaganda qari kampir qiyofasida kelgani va shoirlar bazmiga kiritishlari uchun “Zaboningni” deya boshlanuvchi quyidagi ikki misrani yozib kiritgani haqida yozilgan:

Ismoilbek Gasprinskiyning “Doru-r-rohat musulmonlari” asar qahramoni Faridabonu obraziga muallif ichki muhabbat bilan yondashadi uni ideal ayollar kabi g’oyatda go‘zal ta’riflaydi.

Ismoilbek Gasprinskiyning “Doru-r-rohat musulmonlari” asar qahramoni Faridabonu obraziga muallif ichki muhabbat bilan yondashadi uni ideal ayollar kabi g’oyatda go‘zal ta’riflaydi. “Uning qizil libosda ta’riflanishi esa Fitratning Zulayhosini esga solidi Qiz nafaqat husnu latofatda balki odob, ilm, san’atda ham barkamoldir. “Doru-r-rohat” ning har bir fuqarosi xuddi Faridabonudek ziyoli, chunki ular tarbiya topgan muhit, o‘stirib voyaga yetkazgan ota-onalarning o‘zlari esa serxislat shaxslardir.Muallif bu xususda Mulla Abbos tilidan shunday deb yozadi. “qanday go‘zal turmush! qanday xush maishat! Ota-onasi mudarris, ikki o‘g’li-muallim, qizi-tabibayi komila va inson shaklidagi bulbul. Buncha rohat, nazokat va safo! Qanday baxtiyor insonlar”[19]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, XX asrning birinchi choragida Xamza, Cho‘lpon o‘z asarlarida ayol va qizlar obrazini sezilarni darajada yorita olgan.Va, bu orqali nafaqat o‘sha davr balki hozirgi zamon uchun ham kerakli bo‘lgan asarlar yaratgan desak, xato bo‘lmaydi.Shuningdek o‘sha davr ayollarining matonati mohirona ochib berilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hatto biz uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

[19] Davlatova Adiba. Nasriy asarlarda estetikideal talqini (XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti misolida). “Uslubiy qo‘llanma”: filol.fanlari.dokt.., -Toshkent: 2018.

Gender tenglik va ayollar huquqlarini himoya qilishning ahamiyati

Ba’zilar gender – bu ayollarning hokimiyatga bo‘lgan intilishlari deb hisoblashadi. Haqiqatda esa, bu erkaklar va ayollar masalalari bilan bog‘liq keng va dolzarb muammo – har ikki jinsning tengligi deb aytish mumkin. Shubhasiz, ayollarning jamiyatda muammolari ko‘proq, shuning uchun ayollarga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda dunyo bilan aloqalar, ta’lim, fan, madaniyat, ijtimoiy siyosat tizimidagi gender nuqtai nazari yangi qarash prototipi, jamoatchilik bilan aloqalar va o‘zaro munosabatlarning yangi moduli sifatida qabul qilinmoqda.

Nazarimda, bizning barcha dardlarimiz johillikdan kelib chiqadi. Doimiy ravishda o‘qitish va o‘rganish kerak. Biroq, siyosatdagi ba’zi donishmandlarimiz tasavvur qiladigan tarzda emas, ular faqat qizlarni tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash haqida gapirishadi.

Bizda ko‘plab iqtidorli va qobiliyatli ayollar bor. 500 dan ortiq fan doktorlari va 3000 dan ortiq fan nomzodlari mavjud.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ham har jihatdan yetuk bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda va bu yo‘lda yoshlarni turli ma’naviy xurujlardan saqlash, ularda mafkuraviy imunitetetni kuchaytirish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish kabi vazifalar ustuvorlik qilmoqda. Jaholatga qarshi esa faqat ma’rifat bilan kurashish lozim. Darhaqiqat, dunyoni jaholat egallasa, nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma’rifat, ma’naviyat, hurfikrlik, inson ozodligi barcha-barchasi barham topadi.Mashhur faylasuflardan biri shunday aytib o‘tgan: “Dushmaningdan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlaringdan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”. Bu bebaho gaplardan ko‘rinib turibdiki har bittamiz Vatanimiz rivoji, kelajagi uchun befarq bo‘lmasligimiz va bu g‘ayritabiiy kuchlarga biz o‘z bilimimiz, milliy mafkuramiz bilan har doim, har soniya qarshi turmog‘imiz lozim.

Barchasi ayolning ijtimoiy mavqei, uning idrok darajasi, umumiy huquqiy va siyosiy madaniyatiga bog‘liq. Uy bekasi dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi, o‘qimishli ayol esa o‘z ahamiyatini hayotda o‘rnini topish, mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lishda ko‘radi.

Hozirgi kunda yurtimizga ayollarga bo‘lgan hurmat, e‘tibor tobora kuchayib bormoqda, taraqqiyparvar ayollar jamiyati bizdan keying

avlodga ayollar huquqlarini himoya qilish masalalarida yanada madaniyatli jamiyatni qoldirishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

O‘sha davrlarda ayollarning huquqiy savodlari deyarli yo‘q bo‘lganligi sababli ko‘plab tazyiqlarga duch kelgan, misol qilib aytadigan bo‘lsak, oilada zo‘ravonliklarni ko‘payishining sabablari – avvalombor, ishsizlik va iqtisodiy ahvolning yomonlashuvidir. Ishsiz qolgan erkak qo‘rquv, xavotir, stressni his qiladi.

Turkiston o‘lkasi mustamlaka sharoitida bo‘lgan vaqtda millatimizning jonkuyar ziyolilari xalqni ma’rifatli va madaniyatli, ziyoli bo‘lishga undadi, aksariyat ijodkorlar o‘z asarida maktab maorifdagi yangi o‘zgarishlarga munosabat bildiribgn qolmay, o‘z faoliyatlarida ham amaliy harakatda bo‘ldilar. Shuningdek ko‘plab ziyoli jadidchilarimiz Yevropa va ayrim Sharq davlatlaridagi ta’lim tizimini Turkiston maorifiga tatbiq etdilar.

Xotin-qizlar savodxonligi, millat tarbiyasida marifatli onaning darkorligi she’riyatga olib kirildi. Johil an’analar ta’sirida tutqunlikka mahkum bo‘lgan ayollar masalasi, ularning erkinligi yurt erki orzusi bilan parallel tasvirlandi. 1917- yillarga kelib, she’riyatda maqsadni ramzlar orqali anglatish, fikrlni ochiqdan-ochiq emas, tuyg‘ularga o‘rab berish holatlari ko‘rina bordi. Bunda asosiy ideal turi sifatida ijtimoiy jurlik mavzusi olindi. Yurt ozodligi, istibdoddan qutulish orzusi to‘g‘ridan to‘g‘ri zamonaviy she’riyatda aks etdi.

Ma’rifatli haq-huquqini tanigan ziyoli ayollar obrazi she’riyatga kirib keldi. Avallo, Dilshodi Barno, Barni, Anbar Otin, ijodida ham aks etgan bu kabi g‘oyalar keyinchalik Tavallo, So‘fizoda, Hamza, Cho‘lpon ijodida yanada rivojlantirildi. XX asrning 20-yillariga qadar yaratilgan she’riy asarlarda ham ilm-ma’rifat konsepsiyasi o‘z barqarorligini yo‘qotmadi.

Tarixda 1927-yil 7-mart ayollar erki uchun qurbon bo‘lgan kun deb qaraladi. Ayollar o‘z paranjisini olovga otib, bu harakani ozodlik uchun deb bildirishadi. Ushbu tarixiy voqeadan 1 yil o‘tib, Hamza Hakimzoda Niyoziy ayollarni “Zubdai basha” ya’ni kishilarning sarasi deya ularni ozodlik bilan qutlaydi va ushbu satrlarni yozadi.

Hay-hay, na xush yarashmish, saf-saf, bo‘lib turishlar,
Lashkarcha eskilikka mardona mavj urushlar,
Bayroq xinali qo‘lda, silqib go‘zal yurishlar,
Gulshanning gullaridek, ol yashnab u turishlar,
Chin ma’rifat nuridan, dilga upo muborak

Hamza o‘z she'rlarida xals va millat dardini unga yaxshi tanish bo‘lgan ohanglarda ifodalashga intildi[20]. Hamza ayollarning erkini butunlay ijobiy baholaydi. Ularning chiqishini eskilikka qarshi dengizning mavj urushi deya ta’kidlab o‘tadi. Ammo bu kurashda xinoga yashiringan iboni yo‘qolmasligi, balki u ozodlik bayrog‘i bilan qorishib ketganligini aytadi. Xotin-qizlarni gulshanning beqiyos guliga o‘xshatish bilan birga, ma’rifatdan bahra olishdek baxt bilan qutlaydi.

Ash’or adiblarig ilhom etar jamoling
Dedi quyosh oyga, “Bizdan bukun uyoling”
Ozodlik chog‘ida topqil yana kamoling.
Bersin hayotga sayqal, oynayi jamoling
Topsin tashabbusingdan ishlar baqo muborak.

Asrlar davomida shoirlar barcha ash’orlarini (ijod namunalarini) sening timsolingga bitadi. Yozuvchi ushbu baytda o‘xshatish, ya’ni quyosh timsolida- zabardast yigitarni nazarda tutsa, oy timsolida esa munis ayollarni ilgari surib jamiyatning o‘sha davrga qo‘llab-quvvatlangan, shoirning nadida mutlaqo xato bo‘lgan fikrni qo‘shtirnoq ichida, kinoya yordamida “Bizdan bukun uyoling” tarzda ifodlayabti. Endi jamoling butun bir hayotga sayqal bo‘lsin deya, ozodligini takror ravishda qutlaydi.

Noz uyqudan uyg‘ongil, ozodsan qafasdan,
Qayril bu yon xurofot, bid’at, suq - u nafasdan.
Folbin, mozor, duoxon, kuchuk, tumor alasadan,
Behuda u yasanlar, jangir - jungur havasdan
Turmushda xo‘p kurarsen, nash-u namo muborak.

Cho„lpon o„zbek xotin-qizlari dardiga malham qidiradi. “Kaptar” nomli she’rida esa rivoyatlardagi botir qiz Semiramisga qarata quyidagicha nido qiladi: Ey, dengizning suvlaridan quvvat olgan botir qiz, Kel, mundagi tutqun qizga yolboraylik ikkimiz!”. “Shoir yashagan davrda yoshlarning savodi va istiqboli, o‘zbek xotinqizlarining taqdiri masalasi millat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb masala edi. Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag‘ishlangan she’rlarida Cho‘lpon tabiat mo‘jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg‘ab oldi va shoh satrlarga joyladi. “Sharq qizi”, “Men va boshqalar”, “Qiz qo‘shig‘i”, “Yer asiralari”, “Paranji”, “Kelinchak”, “Zangbuning qizi” kabi she‟rlari bunga yorqin misol bo‘ladi”. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon har bir jamiyatning taraqqiy etganlik belgisi undagi

[20] Xoliqova38-bet

xotin-qizlarning turmush darajasi bilan belgilanishini, o‘zbek ayoli nafaqat o‘z ozodligi, balki yurt hurriyati uchun ham kurasha oladigan kuchga ega ekanini bilardi. Shuning uchun ham aynan shu masalani ijodining yetakchi mavzularidan biriga aylantirdi. Cho‘lpon “Sharq qizi” nomli she‟rida ham yana shu mavzuni qalamga oladi: Men uchun yorug„ dunyo rohati – To‘rt devor ichida ko‘zlar o‘ynatmoq, Menim uchun ulug‘ shodlik soati – Telba ko‘kragimda o‘ylar uyg‘otmoq... Men bir Sharq qizimen, Sharqning o‘zidek Butun tanim, jonim – xayol uyasi, Mening qora ko‘zim kiyik ko‘zidek Belgisiz ovchining o‘qin ko‘rguvsi. Bu satrlarda keltirgan qalb nolalari Sharq qizi ko‘nglidan sizib chiqmoqda.Uning ko‘zlari faqat to‘rt devorni tomosha qiladi, uning shodligi ko‘nglidagi o„y-xayollarda aks etadi. Millatparvar shoir Sharq qizigina emas, balki Sharq millatlarining barrcha xalqining hurligi-yu xursandchiligi faqatgina xayollarda qolmoqdaki, bu xayollar juda ko‘p. Lekin bu Sharq qizi shundayki, u millatni hech bir belgisiz o‘ziga asir qilib olayotgan ovchilarning o‘qini ko‘ra oladi. Cho„lpon ijodidagi, ayniqsa, ijtimoiy lirikasidagi yetakchi xususiyatlardan bo‘lgan ritorik so‘roqdan foydalanish bu she’r so‘ngida ham qo‘llanilgan: “Aytalarkim, yozda har bir joni bor Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar. Aytmaylarkim, Sharqda bog‘liq xotinlar Ul yorug’ dunyoga na zamon kirar?” Bu misralarni o‘qib, Cho‘lpon bu yerda juda o‘rinli savolni o‘rtaga tashlaganini guvohi bo‘lamiz. Cho‘lpon ijodi hamisha o‘zining betakror jozibasi, tasvir uslubi, intimligi va ijtimoiyligi bilan ham adabiyot ixlosmanxdlari qalbiga kirib borgan. Cho‘lpon ijodining yetakchi xususiyatlari bo‘lgan ijtimoiy tushunchalar hamda ularning tasvir etilishidagi, beqiyos o‘xshatishlardagi go‘zallikning eng birinchi sababi esa Cho‘lponning qalbidir. Bu qalb faqat adolat deya jar solgan. Baland minbarlarga qo‘rqmay chiqib achchiq-achchiq haqiqatlarni baralla aytgan edi.

Misra oxirida Hamza ayollarni yana bir bor, dilband, dilozor, nozik xilqat ekanliklarini yodga oladi. Jamiyatdagi haqsizlikdan, yolg‘olchilik-u munofiqlikdan nari ketishini ta’kid etadi. Hayotning behuda sinovlariga aldanmasigiga da’vat etadi. Shoir nazdicha ularning ozodlikka erishishi, qafasdan qutulgan qushga qiyoslanadi.

Muhoraba bois, avvalo, xotin-qizlarning ahvoli og‘irlashdi. Biroq qaddi egilsa-da, ularning irodasi, shijoati bukilmadi. Ular erkaklar bilan bir safda turib kurashdi va she'rlarida “yov ziddig‘a” chiqishga da'vat etdi:

Jarchi b o‘l, Anbar, xotunlar birla chiq yov ziddig‘a !
Bu nechuk mudhish baloyu obi to‘fondur urush.

Shoira Anbar Otin “Urush” radifli she'rini mana shunday misralar bilan yakunlaydi. Ayolning yovga qarshi chiqishi – eng og‘ir hollardagina ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hol. Bu xalq boshiga tushgan musibatning nechog‘lik og‘ir bo‘lgani tasdig‘idir. Anbar Otin mazkur she'ri orqali To‘maris singari jasur ayollarning, “er qizlar”ning (Shavkat Rahmon ta'biri) hali Turonzaminda barhayot ekanini uqtiradi. Yana bir she'rida u, kurashdan asl maqsad «tinchlik»ka erishish ekanini quyidagicha ta'kidlaydi:

Anbaro, ul bahri Ummondin ariq och dunyog‘a!
Tinchlik bag‘rin ketursin suv kabi ul jo‘yi sul?

Yozuvchi bitgan ushbu misralar xotin-qizlarning erkini qutlash maqsadida yozilgan. Hamzaning ijodida bu kabi ijod namunalari ko‘plab uchraydi. Asosan, shoir xotin-qizlarni ham ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi. “O‘zbek xotin-qizlari” she’rida ham ayollarni alqissalab o‘tadi.

“Keldi ochilur chog‘i, keldi ochilur chog‘i, o‘zlging namoyon qil,
Parchlab kishanlarni, har tomon parishon qil.
Maktab anjuman borg‘il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-u fan tig‘i birlan jahl bag‘rini qon qil”

Ushbu baytdan ham ma’lumki, shoirning yagona maqsadi xotin-qizlar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma’rifatli qilish. Xotin-qizlar ham jamiyatning tom ma’nosidagi kishanlariga qarshi da’vat etadi. Bu kabi mavzularda bosh mezon – ona qilib, olingan.

Abdulla Avloniyning shoir, dramaturg, teatr arbobi, jurnalist va pedagog sifatidagi faoliyati o‘zbek xalqining milliy-ijtimoiy ongini, madaniy va ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qilgani ayon. Adibning keyinroq o‘z tarjimai holida “Bu vaqtlarda bizning maqsadimiz Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”, degan e'tirofi ham buning dalilidir.

Shoir, dramaturg, kompozitor, rejissyor, jurnalist, pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning ko‘p qirrali ijodida “Milliy ashuvlalar uchun milliy she'rlar”i alohida mavqega ega. Bu majmua 1915-1917 yillarda yaratilgan bo‘lib, etti to‘plamdan iborat: “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul” va “Safsar gul”. ?amzaning ushbu to‘plamlarni yaratishdan asl maqsadi milliy ashulalar kuylarining xalq yodida saqlanishiga erishish, millatning orzu-armonlarini ifodalash orqali uning ijtimoiy-siyosiy ongini o‘stirish,

ilm-ma'rifat targ‘ibi vositasida millatni uyg‘otish edi. Shunisi muhimki, ikkala ijodkorning ham she'r-ashulalari 1916 yil voqealariga bag‘ishlangan asarlar orasida alohida ajralib turadi. Xususan, Abdulla Avloniy to‘plagan “Mardikorlar ashuvlasi” 1916 yil 18 sentyabrida mardikorlar eshelonini Rossiyaga front ortidagi ishlarga kuzatish marosimida “Turon” truppasi tomonidan turli kuylarga solib aytilgan xayrlashuv qo‘shiqlarini tashkil etsa, o‘z navbatida, Hamzaning “Safsar gul” to‘plami yurtdoshlarimizning keyingi taqdiri – musofirlikda kechgan iztirobli hayoti, dardli kechinmalari, sog‘inch tuyg‘ularini aks ettirgan.

Shu o‘rinda vaqtli matbuotda e'lon qilingan xabarlardan biriga murojaat etish zarurati tug‘iladi: “Mazmun emish, yaqinda ham ko‘ngillik ishchilar yig‘ilishub, podshohi a'zam imperato‘rimizni suratlarini ko‘torishub, rasmiy bayroqlar ilan musulmoncha ashuvlalar aytishib, shaharni(ng) hama ko‘chalaridin yurishgonlarida alarni(ng) orqalaridin ko‘b kishilar yig‘ilishibdurlar”. Ishchi mardikorlarning ikkinchi Nikolay suratini ko‘tarib yurgani haqidagi ma'lumotni bosh?a manba – xotiralarda ?am uchratamiz. “Musulmoncha” deya ta'kidlangan ashulalar esa, aslida, Abdulla Avloniy to‘plagan “Mardikorlar ashuvlasi” ekani ehtimoldan xoli emas. Yurtdoshlarimizni mardikorlikka kuzatish chog‘ida Nikolayning surati ko‘tarilgani, ashulalar aytilgani rostdir, biroq o‘sha damda xalqning kayfiyati, ruhiy axvoloti qay darajada edi? Ko‘nglidan nimalar kechayotgan edi? Abdulla Avloniyning “Mardikorlar ashuvlasi” mutolaasi bu kabi savollarga aniq javob olish imkonini beradi. Bu she'rlarda, eng avvalo, boquvchisidan ayrilayotgan ota-onaning ?asrat-nadomati aks etgan.

Naylayin, ketding qoshimdan, qoldim endi ayrilib,
San ketarsan, man g‘aribga kim boqodur qayrilib?!

Shuningdek, adibning “Biz va siz” dramasida turmushda, oilasidagi ilmsizlik tufayli farzandlar taqdiridagina emas, butun jamiyatda yuzaga kelayotgan fojialar qalamga olinadi. Ya’ni Gasprinskiy idealidagi davlat fuqarolarining ma’rifatli shaxslar ekanini e’tirof etib, butun dunyoda shunday insonlar ko‘payishini orzu qilsa, Avloniy esa ziyoli yigit fojiasi orqali har bir xonadon vakilining yangicha dunyoqarash egasi bo‘lish lozimligini uqtiradi.[21]

[21] Davlatova Adiba. Nasriy asarlarda estetikideal talqini (XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti misolida). “Uslubiy qo‘llanma”: filol.fanlari.dokt.., -Toshkent: 2018.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon biqiq jamiyatda xotin-qizlarning erkinligini orzu qilgan, bu istagini qator she’riy asarlariga singdirgan edi. Shuning uchun u Vadud Mahmud ta’kidlaganidek, “ko‘nglida yig‘lagan malaklarning sharqning onalari, juvonlaridan iborat ekanini qancha ochiq, muassir va e’joz bilan quyidagi misralarida tasvirlaydi

Yirtingiz!
Go‘rlarga eltingiz!
Yondiring chimmatni,
Bo‘gmasin,
To‘smasin
Tabini ziynatni!
Yo‘q bo‘lsin,
Yo‘q bo‘lsin
Paranji!
Ochilsin,
Gullasin,
Yashnasin,
Paranji ostiga berkingan,
“Menga ham erk!” degan
Inji! Inji![22]

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash joizki, Rossiya imperiyasining tazyiqlariga qaramay, Turkistonda xotin- qizlar maorifini jonlantirish va usuli jadid asosida- gi jadid maktablarini tashkil etish ishlari davom etdi. Mazkur jarayonlarda milliy taraqqiyparvarlar bilan birgalikda tatar ma'rifatparvar ayollari ham faol ishtirok etdilar. Tatar muallimalarining o‘lkada olib bor- gan faol faoliyatlari natijasida, mahalliy ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshishi hamda, ular orasidan har sohaning ilg‘or bilimdonlari etishib chiqishi va o‘z haq-huquqi uchun kurashish, qat'iyatlilik, ma'rifatga bo‘lgan intilish kabi xislatlarni uyg‘onishiga olib keldi deyishimiz mumkin.

Mamlakatimizda asosiy qonun, Konstitutsiya bilan boshlanib, boshqa qonun hujjatlariga qadar bu masalada hamma qonun me’yorlari mukammaldir. Ayollar huquqlarini 100 dan ortiq qonunlar himoya qiladi.

[22] Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi.She’riy to‘plam.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.2019.120-bet.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta Senat raisi lavozimi ayol kishiga ishonib topshirilgani va 2019 yil avgust oyida «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar to‘g‘risida"gi qonun qabul qilingandan so‘ng, hokim ayollarning paydo bo‘lgani quvonarli rosti. Bularning barchasi umid borligidan dalolat beradi, ammo prezidentning siyosiy irodasi tufayli qarorlarni qabul qilish darajasida ayollarning ishtiroki ortadi.

Yaqin o‘tmishda hatto rivojlangan Germaniyada ham, agar esingizda bo‘lsa, ideal ayolning nemis jamiyatidagi o‘rni va rolini belgilaydigan uchta «K» (kinder, küche i kirche - «bolalar, oshxona va cherkov») tamoyili mavjud edi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ayollarning o‘rni doimiy ravishda oshib bormoqda va bugungi kunda Germaniyada ham, boshqa Yevropa mamlakatlarida ham kvotalar orqali juda yaxshi natijalarga erishilmoqda. Skandinaviya davlatlari hukumat va parlamentdagi ayollar soni bo‘yicha umuman butun sayyoradan oldinda.

Nazarimda, bizning barcha dardlarimiz johillikdan kelib chiqadi. Doimiy ravishda o‘qitish va o‘rganish kerak. Ammo, siyosatdagi ba’zi donishmandlarimiz tasavvur qiladigan tarzda emas, ular faqat qizlarni tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash haqida gapirishadi.

Mamlakatimizda ko‘pincha qizlardan ustunlik ruhida tarbiyalanadigan o‘g‘il bolalar ham o‘qitilishi kerak. Maktablarda a’lochilar, odatda qizlar, o‘g‘il bolalar esa o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega. Bundan kelib chiqadiki, hayotda kechagi «ikkichi» yoki uch bahoga o‘qigan bola o‘zining hayoliy ustunligi tufayli yetakchiga, rahbarga aylanadi. Bu, albatta, bema’nilik. Ammo bu haqiqat.

Erkaklar o‘z vaqtida qo‘llarini ko‘taradigan itoatkor, moslashuvchan ayollarni tanlashni yaxshi ko‘radilar

Oiladagi zo‘ravonlikka nafaqat tajovuz, balki doimiy haqorat va ruhiy bosim ham kiradi.Bu kabi zo‘ravonlik negizida ayolning turmush o‘rtog‘i tomonidan qaysidir bir muammoni yechish istagi emas, aksincha oila a’zosini kamsitish va boshqarish istagi yotadi.

Kaltak va tahqirlashlarga qaramay, oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari muhabbat, qasos qo‘rquvi, jamiyatdagi qarashlar yoki har qanday yo‘l bilan bo‘lmasin o‘z oilalarini saqlab qolish istagi tufayli ko‘pincha yordam so‘ramaydilar. Ba’zan bu fojiaga olib keladi.

Ba’zi ayollar zo‘ravonlikka ko‘p yillar davomida dosh berishga tayyor, ammo oxir-oqibat jabrlanuvchi ortiq toqat qilolmaydigan darajada ojizalanadi, ham ma‘naviy ham jismoniy kuchi qolmay hayotga

bo‘lgan yashashga bo‘lgan xohishi qolmaydi, jaholat va zulmkorlik, ayolning tushunarsiz itoatkorligining eng yuqori

Ming shukurki mustaqillik yillaridan keyin bunday qarashlar va bu kabi salbiy holatlarning taqdiri tubdan bartaraf etildi.

Hozirgi kunda ayollarga bo‘lgan e’tibor va hurmat yuksak darajada bo‘lib, ayollarning har bir sohada fidoyiligi va sadoqati bilan mehnat qilib, yuksak marralarga erishib kelayotgan xotin-qizlarimizning yutuqlari salmoqlidir.

–Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi.

–Ayni paytda Oliy Majlis Senatida-17 nafar senatr,

–Qonunchilik palatasida -21 nafar deputat

–Mahalliy kengashlarda esa xalq vakillarining 23 foizdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etadi.

–Tuman hokimligida 6 nafar ayollar faoliyat olib boradi.

–Mingdan ortiq ayollar mahalla fuqarolar yig‘inini boshqarib kelmoqda.

Yuqoridagi bu ko‘rsatkihlar xotin-qizlarga bo‘lgan hurmat-etiborning yorqin ifodasidir.‘

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg’onish va milliy ong yuksalishida katta rol o‘ynagan. Jadidchilik qoyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo‘jaev, So‘fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar qoyat oqir sharoitlarda tarqib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini erga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar oqir moddiy qiyinchiliklar, qoyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to‘yqusini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab etganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablaqlarini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

XX asr birinchi choragidagi Turkistonda yuritilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot haqida ilmiy fikrlar ilgari suriladi. Fikrlar faktlarga asoslanib yoritildi.

XX asrning birinchi choragida Xamza, Cho‘lpon o‘z asarlarida ayol va qizlar obrazini sezilarni darajada yorita olgan.Va, bu orqali nafaqat o‘sha davr balki hozirgi zamon uchun ham kerakli bo‘lgan asarlar yaratgan desak xato bo‘lmaydi. Shuningdek o‘sha davr ayollarining matonati mohirona ochib berilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hatto biz uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

Hamza dramalarida xotin-qizlarning ilm-ma’rifat olishi masalasi maishiy mavzular orqali qalamga olingan. Muallif bir qator obrazlar bayonida xotin-qizlardagi ibo, hayo hamda oilaparvarlik xususiyatlariga yuqori baho beradi va bu orqali mukammal turmush uchun ayol ham barkamol bo‘lmog‘i zarur, degan xulosani yetkazadi.

II BOB. JADID DRAMALARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING TADRIJIY TALQINI

II.I. Behbudiy, Hamza, Avloniy, Qodiriy dramalarida xotin-qizlar obrazining o‘ziga xos xususiyatlari

Ma’rifatparvarlar dramaturgiyani eng sermahsul va ommabop janr sifatida rivojlantira olishgan. Ma’rifatparvarlik g‘oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san’atining ta’sir ko‘rsatishi kuchli bo‘ldi. Shuning uchun ham ma’rifatparvarlik adiblarining aksariyat yirik nomayondalari o‘z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog‘liq holda olib bordilar.

MUALLIFLAR	M.BEHBUDIY	H.H.NIYOZIY	A.AVLONIY	A.QODIRIY	A.CHO’LPON	H.MUIN
UMUMIY DRAMALAR SONI	1	9	5	1	8	7
AYOL OBRAZI UCHROVCHI DRAMALAR	1	4	3	1	3	1

Ma’rifatparvarlik adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi.

Drama turiga mansub barcha asarlar ham qahramonlar harakati va ruhiy holatini ko‘rsatishga asoslangan bo‘ladi. Drama so‘zi yunoncha “drama” so‘zidan oingan bo‘lib, u “harakat” degan ma’noni bildiradi. Drama turiga mansub asarlarda qahramonlar kayfiyati, qarashlaridagi o‘zgarishlar ularning diolog, monologida aks etadi. Bu diolog va monologlar muayyan hodisani keng gavdalantirishi bilan epic turga mansub asarlarga, voqealarni faqat qahramonlar nutqi orqali ma’lum qilish bilan esa lirik asarlarga o‘xshaydi, dramaning o‘ziga xos

xususiyatlaridan yana biri ularning sahnada ijro etilishidir[23]. Bu turdagi asarlar sahnada ijro etilgandagina to‘laqonli ta’sirchanlik kasb etadi.

Bunga misol tariqasida Behbudiyning “Padarkush” Hamzaning - “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” Xoji Mo‘inning Drama turiga mansub asarlar tanlangan mavzusi, uni yoritilishiga qarab turli xil janrlarga bo‘linadi.

Bular: drama, komediya, tragediya Jadid dramalarini ushbu janrlar asosida tahlil qilamiz. Drama turiga mansub janrlar pyesa deb ham yuritiladi. Drama janridagi asarlarda komediya va tragediya xususiyatlari o‘ziga xos tarzda umumlashadi. Chunki unda jiddiy konfliktga asoslangan voqealar qahramonlarning ham kulguli, ham fojiali holatlarini gavdalantirish orqali ko‘rsatiladi. Umuman olganda, drama asarlari ijobiy va salbiy kuchlar orasidagi kurashni namoyon etishga asoslanadi[24]. Misol tariqasida “maysaraning ishi” dramasida to‘laqonli yuqorida aytib o‘tgan misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Ta‘kidlashimiz joizki, o‘zbek jadid dramaturgiyasi hamda uning natijasida yuzaga kelgan teatrning shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va dramatik asarlarda mavzu ko‘lami jihatidan davr hayotidagi barcha ijtimoiy masalalarni qamrab oldi

Yer yuzida so‘z va soz san’ati, shoiru hofiz, rassom va haykaltarosh paydo bo‘libdiki, on ava ayol zoti yuksak pardalarda tarannum etib kelinadi. Ulug’ shoirimiz Erkin Vohidov aytganlaridek, “Olamda ayol madhiga doston tugamaydi”. Chunki, ayol siymosi Yaratganning tengsiz mo‘jizasi bo‘lib kelgan va hamisha shunday bo‘lib qoladi[25].

Ma’rifatparvarlik adabiyotining o‘ziga xos tomoni unda ayollar obrazining ustunligida edi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma’rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida Boybuchcha xonim hamda Liza obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, qiyosiy talqini

XX asr boshlarida Jadidchilar yoshlar orasida eng kata muammolardan biri ilmsizlik, o‘qishni istamasdan dangasalik qilib,

[23]Tashmuxamedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism.-Toshkent: “Noshr” 2019. 104-bet

[24] Tashmuxamedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism.-Toshkent: “Noshr” 2019.105-bet

[25] Mirziyoyev.Sh.M. Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag’ishlab so’zlagan nutqidan. https://kun.uz.news.2019/03/07

bekorchilikdan turli yomon illatlarga berilib, oila va ota-onaga hurmatsizlik qilishlarida deb baholagan. Va o‘zlarining ko‘plab asarlarida buni yaqqol ko‘rsatib berganlar.Ana shunday sahna asarlaridan biri M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi edi. Behbudiy asarni milliy fojia deb atagan, ushbu drama 1911-yilda yozilgan bo‘lib, oradan ikki yil o‘tgach, ya’ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi.

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. Muallif «o‘qimagan bolaning holi»ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta’lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o‘z g‘oyasini: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo‘sinda bayon qiladi.

Dramada boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi shu obrazlarning o‘zaro suhbatlari, bahs-munozaralari jarayonida namoyon etiladi. Har bir obraz tabiatiga xos fazilat, xususiyat va qusurlar ularning gap-so‘zlari, xatti-harakati, muallif tomonidan berilgan kichik izohlar yordamida ko‘rsatiladi. Muallif har bir obraz orqali o‘sha davr jamiyatining haqiqiy hayotini ochib berishga harakat qilgan. Asardagi har bir qahramon o‘zining o‘z o‘rniga ega. Asarda yana bir ayol obrazi mavjudki, asarda ushbu ayolni **“*Liza-rus xotuni, qabiha shaklinda*”**[26] -deya ta’rif beradi. Liza o‘sha davrdagi buzuq tuzumni ifodalaydi. U obrazdagi ayol fohishalik, beandishalik timsoli sifatida gavdalanadi. Behbudiy ushbu dramada axloqsiz Lizaning bir kechalik xizmati uchun to‘lanadigan 15 rubl (katta miqdordagi pul) va Boyning uyidagi o‘qimishli, ziyoli xizmatkoriga bir oyda to‘lanadigan 7 rubl o‘rtasidagi keskin farqni qiyoslab ko‘rishni xalqqa havola etadi. Bunday jinoyatlarning asosiy sababchisi, har qanday g‘ofil, savodsiz insonni yomon yo‘lga boshlaydigan shaytoniy kuch – ichkilik, chilim, maishatbozlik. U yosh o‘spirinlarning kuchli istaklari, jilovsiz tuyg‘ularini uyg‘otishga ta’sir etadi va ularni fohisha ayol suhbatiga yetaklaydi. Shuning barobarida Behbudiy o‘smirlarning ichimlik, chilim chekish axloqsiz bazmlariga qo‘shilib jinoyat

[26] Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi.-Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 1997. 137- bet.

ko‘chasiga kirib qolishlariga sababchi bo‘lishini oldindan bashorat qiladi. Toshmurodning shaxsiy istaklari (hirsi)ni qondirish uchun o‘z uyiga o‘g‘irlikka tushishiga yuqoridagi sabablardan boshqa bahona yo‘q.

Behbudiyning adabiy qobiliyati qotillikning (ikkinchi) sababchisi va yetakchi salbiy obraz Liza (fohisha) ni axloqsizlik ayol sifatida ko‘rsatishda ham yorqin namoyon bo‘lgan.

Lizaning xatti-harakatlari, jamiyatdagi insonlar taqdiriga bevosita qay darajada ta’sir qilayotgani asarda namoyon bo‘ladi. Ya’ni birgina ayol butun bir jamiyatga dushman bo‘la oladi. Muallif Liza orqali barcha e’tiqodli musulmonlarga yot bo‘lgan, ularda nafrat, jirkanch uyg‘otadigan tipik obrazni kashf qildi, Turkistonga kirib kelayotgan «yevropacha» hayot illatlarini rad etadi [27].Ayni zamonda, Behbudiy Liza obrazi va jamiyatdagi yaramas odatlarni qoralash yo‘li bilan senzuradan qochishga muvaffaq bo‘ladi. Maishatxondagi Artun ham na turkistonlik, na arman millatiga xos bo‘lmagan ajnabiy, qiyofasiz inson sifatida ko‘rinadi. Lizaning xatti-harakatlari, jamiyatdagi insonlar taqdiriga bevosita qay darajada ta’sir qilayotgani asarda namoyon bo‘ladi. Ya’ni birgina ayol butun bir jamiyatga dushman bo‘la oladi. Dramani o‘qigan inson Lizaga nisbatan nafrat tuyg‘usini tuyadi. Bir vaqtning o‘zida Boybuchcha xonimga achinish hissi ham kitobxon qalbini egallab oladi. Bu esa adabiyotda qarshilantirish orqali kitobxon qalbida qolish san’atidan unumli foydalanilganligini ham anglatadi.

Asardagi yana bir asosiy ayol obrazi ***boybuchcha*** xonim boyning xotini hisoblanib, 35-40 yoshlar chamasida, 3-pardada ana shu ayol obrazi yoritib ko‘rsatib o‘tiladi. Boybuchcha ham eridan, ham o‘g‘lidan ayrilgan, bir kunda ikki insonidan ayrilgan ham ona, ham xotin sifatida gavdalanadi.

Bir vaqtning o‘zida Boybuchcha xonimga achinish hissi ham kitobxon qalbini egallab oladi. Bu esa adabiyotda qarshilantirish orqali kitobxon qalbida qolish san’atidan unumli foydalanilganligini ham anglatadi

Behbudiy bu obraz tasvirida Markaziy Osiyo adabiyoti an’analaridan yiroqroq bo‘lgan, G‘arb adabiyoti uslubiga ko‘proq murojaat qiladi. “Padarkush yoxud o‘qimagan bola holi” dramasi Turkiston maishatidan olingan ibratnoma hisoblanadi. Drama didaktik ruhga yo‘g‘rilgan bo‘lib, 3 parda, 4 manzarali birinchi milliy fojiadir.

[27] Ingliz tilidan Zulxumor Mirzayeva tarjimasi // Jahon adabiyoti, 2009 yil, 9-son.

Asarda jami o‘n bir kishi ishtirok etadi, undan ikki qatnashuvchi ayol obrazi Liza va Boybuchchadir.

Asardagi Boybuchcha xonim boyning xotini hisoblanib, 3-pardada ana shu ayol obrazi yoritib ko‘rsatib o‘tiladi. Boybuchcha ham eridan, ham o‘g‘lidan ayrilgan, bir kunda ikki insonidan ayrilgan ham ona, ham xotin sifatida gavdlanadi. Dramadagi o‘shailmsizlikning vayoki bola tarbiyasida befarq otaning jabrdiydasi bo‘la oladi. Bir vaqtning o‘zida ham turmush o‘rtog‘idan, ham yolg‘izgina farzandidan ayrildi. Uning hayotidagi eng ayanchli qismati turmush o‘rtog‘ining daxshatli o‘limidir va qismatning sababchisi farzandining ayanchli taqdiriga sababchi deya uzoqni ko‘ra bilmagan, farzandini kamolini panja ostida o‘ylagan boyni o‘z otasini ko‘rishimiz mumkin. Lekin asardagi eng og‘ir yuk onaga tushadi.

Bu qismat ayol uchun ona uchun chidab bo‘lmas darajadagi hayot mashaqqatidir. Muallifning aynan ona obrazini qalamga olishining ayni sababi ham shunda. O‘sha asardan parcha keltirish orqali Boybuchcha xonim obrazini yoritib o‘tishga harakat qilamiz:

Boyvuchcha: (*to’lg’onib). Ey, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy-y-y!*

Domulla: *Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo’ldi. Endy sizga, ochig’i, sabrdan boshqa iloj yo’qdir, onajon. Olloh sizga sabr bersun.*

Boyvuchcha: *(kamoli betoqatlik ilan oh-vovaylo etar). Dod, voy, bolam! Voy, boyim! Ikkisidan ham ayrildim. Erimni mozorg‘a, bolamni Sibirg‘a yuborarlar. Voy, voy, voy y-y!..*[28]

Drama o‘qish davomida shu narsa anglashiladiki, ikki ayol obrazi bir-biriga qarama-qarshi tarzda dramani yoritgan. Liza obrazi butun jamiyatga kushnadalik qilayotgan buzuqlik timsoli, Boybuchcha timsoli esa ana shu Lizadek ayol kasofatiga jabrlangan jabrdiyda ayol sifatida yoritib o‘tilmoqda. Lizadek ayollar jamiyatdan ketmas ekan, Boybuchchadek ayollar jabrlanaveradilar, jamiyat ham ilmsizlikdan, ham fahshdan azoblanib, taraqqiyotdan ortda qolaveradi.

Boybuchcha xonim obrazi	**Liza obrazi**
ilmsiz ayol	rus xotuni
jabrdiyda ayol	Axloqsiz

[28] Shuhrat Rizayev. Jadid dramasi.-Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 1997. 147- bet.

jabrdiyda ona	Fohisha
ayanchli qismat sohibi	nafsi buzuq
ojiza ayol	qabiha
	jamiyat kushandasi

Behbudiyning konsepsiyasi, shuningdek, Markaziy Osiyo jamiyatidagi jadidona qarashlarga ko‘ra, Boyning xotinidan tashqari barcha personajlar negativ (bizningcha ziddiyatli – Z.M.) obrazlar qatoriga kiradi. Boyning xotini tashqi kuchlar tomonidan butun umri xazon qilingan vaziyatda, ham eridan, ham o‘g‘lidan judo bo‘lgan mushtipar ayol va hushini yo‘qotgan ona sifatida uchinchi pardaning birinchi manzarasida og‘ir ahvolda namoyon bo‘ladi[29].

Boyvuchchaning kutilmagan ayanchli qismati, ayni shu damda o‘g‘li Toshmurod tomonidan ijaraga olingan to‘pponchadan havoga uzilgan o‘q asarga melodramatik holatlarni olib kiradi. Melodrama tuyg‘u va hissiyotlarni bo‘rttirib ko‘rsatib, sabab va oqibatlarni to‘la aks ettirmaydigan janr deb hisoblasak, bu asar melodrama emas, unda melodramatik elementlar bor, ammo ular to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Agar bu asarda romantik his-tuyg‘ularni ifodalovchi harakatlar mavjud deb aytadigan bo‘lsak, odatda bunday asar fojia bilan emas, balki baxtiyorlik, xursandlik bilan yakun topishi kerak edi. Behbudiy asari uchun og‘ir dolzarb mavzu tanlagan. Asardagi ozgina hissiyot va g‘azab, nafratni hisobga olmaganda, unda hech qanday romantik yoki tuyg‘ularni ifodalovchi o‘rinlar yo‘q.

Behbudiyning Padarkush dramasida ayollar timsoli o‘ziga xos mavzuga aylana olgan, asardagi ayol obrazi ayolning beqanoat, besabr ko‘rinishlarini ayanchli yoritib bergan. Shunday ayollar borki, jamiyatimiz rivojiga to‘siq, oilalar buzilishiga, erining qing‘ir yo‘lga kirishiga sababchi bo‘lib qolishadi. Asarda ana shunday ayollar obrazi qattiq qoralanadi.

[29] Begali Qosimov. Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan Asarlar Toshkent. “Ma’naviyat”.1997

Hakimzoda Niyoziy dramalari hamda romanlarida ayollar timsolining o‘ziga xos xususiyatlari

Hamza Hakimzoda Niyoziy (Nihoniy taxallusi bilan ijod qilgan)ning (“Zaharli hayot” (1916), “Maysaraning ishi” (1926), “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi”ni (1927) yozdi. Bulardan tashqari, “Burung‘i saylovlar”, “Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari”, “Qozining sirlari”, "El quzg‘unlari” kabi 1921 va 1928-yillar orasida yozilgan katta-kichik dramalari mavjud.

Hamzaning o‘zbek dramaturgiya sohasidagi faoliyatini qisqacha qilib, u o‘z davri xalq hayotini ko‘zguga solib ko‘rsatib berishning uddasidan chiqdi, deyish mumkin. Bu esa, barcha zamonlar ijodkorining muqaddas orzusi hisoblanadi. Shuning uchun ham Hamzaning eng sara dramalari hozirgacha sahna yuzidan tushmay kelmoqda.

“MAYSARANING ISHI”	“ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI”	“PARANJI SIRLARI”	“BOY ILA XIZMATCHI”
MAYSARA	MARYAMXONIM	MASTURA	POSHSHO OYIM
OYXON	SORA	GULJON	XONZODA
	ZAYNAB	TO’LAXON	GULBAHOR
		HOJAR	JAMILA
		ZUBAYDA	
		TOJIXON	
		OBIDAXON	
		TILLAXON	
		XOLISXON	
		OYXOLA	
		OYPOSHSHA	
		MAHMUDA	

Bizning nazarimizda Hamzaning “Yangi saodat”da yarq etib ko‘rinib turgan ifodadan tashqari, yana qandaydir bayonlar bordek. Ya’ni bosh qahramon aslida Olimjon, lekin bizningcha uning onasi Maryam obrazi desak yanglishmaymiz. Negaki, savodli, o‘qimishli Maryamning ilmga rag‘bati bo‘lmaganida, Olimjon taqdirida muhim burilish yasagan jadid muallimi bilan tanishmas, natija yozuvchi ko‘rsatganidek, yetuk shaxs bo‘lib kamol topmas edi. Demak, oilaning farog‘ati, farzandlarning saodati uchun ona ham mas’ul. Maryam johila

bo‘lganida oilaning holi nima kechardi? Olti yoshli Olimjon, uch yoshli Xadichaning taqdiri-chi?! Demak, Hamza ilk bor hayotiy voqelik yo‘rig‘ini belgilay oladigan ayollar obrazini nasrga olib kirdi. Jadid muallimi qo‘lida tahsil olgan Olimjon, tabiiyki, orzusiga ilm-ma’rifat orqali erishadi. “Har bir asar yozuvchining badiiy niyati asosiga quriladi. Belgilangan maqsad yaratilayotgan asarning shakl va mazmunini tayin etishda muhim o‘rin tutadi. Badiiylikning mukammalligini anglatuvchi mezonlardan biri – mazmun va shakl birligidan tashqari har ikkisining ijodkor ideali bilan nurlangan uyg‘unligi ham mavjud”[30].

Abdurahmonboy ismli savdogar Olimjonni o‘z qaramog‘iga oladi. Qiziga uylantiradi. O‘limi oldidan bor bisotini Olimjonga vasiyat qilib qoldiradi. U barcha qiyinchiliklarni yengib, “otasi yo‘q” degan ta’na-dashnomni yengib, onasi Maryam, singlisi Hadicha va buvisi Ruzvonning ishonchini oqlab, uylanish pallasiga kelganda bularni taqdir hukmiga tashlab ketgan otasini izlab topishni maqsad qiladi. Olimjon otasini topadi, uni uyga olib keladi.

Olimjon Qo‘qondan Toshkentga 16 soatlik yo‘l bosib, bir paytlar g‘arib holda oila, bola-chaqasini tashlab ketgan otasi Abdulqqahhorni izlab keladi. Adib tasvirlashicha, “... besh-o‘n dona yamoq soladurg‘on eski kafsh-mahsilar bila bigiz, igna, if, mo‘mlarni olub chiqub, oftobginada bir parcha eski sholchani tagiga solub o‘ltirub, bir oz yamoq tikay degan bechora Abdulqahhorni bu kecha uyqusida tushiga kirgan Olimjon, Hadicha, mungluk Ruzvon bilan Maryamni hafalik hollari, Olimjon bila Hadicha bo‘yniga sorilub: “*Dadajon, bizni tashlab, qaysi tarafda yurasiz, sog‘inmaysizmi? Biror marotaba bizdan xabar olmaysizmi? Dadajon, rahmingiz kelmaydimi? Biz sizni sog‘inub, yuraklarimiz ezildi-ku, jon dadajon*”, - deb qilgan nolalari yodiga tushub, butun holi o‘zgarub, qo‘lidagi igna, iflari tushub, jigar-bag‘ri ezilub, bir tarafdan, bang, ko‘knor, ikkinchi tarafdan, furqat va g‘urbat ta’siri bilan sarg‘argan yuzlarig‘a dog‘i vatan va farzand alami va sitamidan tirqirab chiqgan g‘amlik ko‘zyoshlari tomchilab, yo‘lg‘a termulub, hayron va parishonhollik bir hol va xayollarga cho‘mulub turmakda edi”. Abduqahhor mana shunday alfozda o‘tirar edi. Uning yuragi iztirobda qolgan, qalbi g‘am-anduhga to‘lgan edi.

“Hamza Abduqahhor qalbini ana shu ichki tuyg‘u ifodasi orqali ochadi. Adib uni avomlikdan ma’rifat ostonasiga olib o‘tadi”[31]. Birgina

[30] Саримсоқов Б. Адабиётда шакл ва мазмун муносабатларининг айрим муаммолари // ЎТА, 1997. – №6. – Б.11.

[31] Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Т.: Фан ва технология, 2006. Б. 18.

tush orqali insonning qarashlari butkul o‘zgarishi, tushkunlik kayfiyatidan umid va ishonch ruhiyatiga o‘tishi, qilgan ishlari uchun afsus va nadomatlar chekishi, albatta, ongidagi o‘y-tashvishlar bilan bog‘liq. Yillar davomida ezib kelayotgan o‘ylar hech bir insonga na tushida, na o‘ngida halovat bermaydi. Abdulqahhor endi chinakamiga qilgan ishlari uchun afsus cheka boshlagan edi. Farzandi Olimjon uni ayni shu paytda bu og‘ir vaziyatdan chiqarib oldi. U o‘z farzandlik burchini ado etdi.

Hamza ushbu qahramon ichki kechinmalari orqali asarning estetik ta’sir kuchiga urg‘u bergan bo‘lsa, ikkinchidan, Abdulqahhorning ruhiy poklanish jarayonini ko‘rsatmochi bo‘ladi. “Demak, Abduqahhor *«johil ota»*gina emas, o‘z qilmishlariga tavbalar qilguvchi samimiy inson, solih banda hamdir... «*Yangi saodat*»da gap qalbni g‘uborlardan tozalash haqida boradi”[32], deydi olim Islomjon Yoqubov.

Asarda yozuvchining maslagini ochish uchun jadid muallimi obrazi tanlangan. Jadid maktablariga va muallimlarga tazyiq kuchaygan bir sharoitda bu obrazning yaratilishi Hamzaning orzusini anglash imkonini beradi. Qolaversa, bu o‘rinda ma’rifat yangicha qarashlar asosida singdiriladigan jadid maktablaridagi ta’lim boshqa o‘quv muassasasiga nisbatan samaraliroq, degan ta’kid ham yo‘q emas. Demak, Hamza islohotparvarlar yo‘lida ekan, uning ideali ham jadid muallimi yoki yangicha fikrlaydigan kishilardan iboratligi asoslidir. Aslida Maryam va jadid muallimi obrazlari muallif g‘oyasiga xizmat qilgan. Olimjon esa g‘oyaning samarasi – kutilgan natija edi. “Amin bo‘lmog‘imiz kerakdurkim, bizlar to erkak va qiz bolalarimizni birgalikda tarbiya etmaguncha bizlardan kelajakda mas’ud oilalar yetishmas. Bizlar hech vaqt g‘oyai a’molimiz bo‘lg‘on chin baxt va saodatg‘a, taraqqiy va tamaddung‘a yetolmasmiz”.[33]

Shuningdek, adib Maryamni to‘laqonli ayol sifatida chiroyli tasvirlaydi. Garchi uning portreti chizilgan bo‘lmasa-da, eri Abduqahhor kelishidan oldin barcha ginalarni unutib, o‘ziga oro berishi fikrimizga misol bo‘ladi.

Hamzaning «Uchrashuv» (To‘rt ishq) asari ham jadid romanchiligidagi ilk tajribalardan. Lekin «Befarzand Ochildiboy» singari bu roman ham to‘liq yetib kelmagan. Uning faqat «Uchrashuv» bobidan parchalar saqlanib qolgan, xolos. Shirin, Yusuf, Roziqboy,

[32] Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Т.: Фан ва технология, 2006. Б. 19.
[33] “Меҳнаткашлар товуши”. 1918, 9 июл

Abror kabi obrazlar orqali turmushning turli qirralari turlicha rakurslarda namoyon bo‘ladi. Asarda ilm-ma’rifat emas, balki maishiy masalalar qalamga olingan. Lekin muallif Salima, Shirin kabi obrazlar bayonida xotin-qizlardagi ibo, hayo hamda oilaparvarlik xususiyatlariga yuqori baho beradi, bu orqali esa demak, mukammal turmush uchun ayol ham barkamol bo‘lmog‘i zarur, deb hisoblaydi.

Maryam ilmga tashna ayol timsoli. “Yangi saodat” asarida Olimjonning ma’rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o 'z baxtidan boshqa kishining ham bahramand bo‘lishini tasvirlagan bo‘lsa, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” fojiasida ma’rifatli insonning jaholat va g'aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko‘rsatishni maqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza “Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi" -deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki sahnasidayoq qahramonlarning o‘zlariga munosib bo‘lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko‘rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgarilab ketgan va o‘z zamoniga sig'may qolgan yoshlar o‘rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan yoyidek uchib boradi-da har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi. Bundagi Maryamxon obrazi ham ma’rifatga tashna ayol timsoli sifatida gavdalanadi.

Ikki adibimizning ijodida ham ayollar timsoli mohirona tarzda ochib berilgan, bu obrazlar orqali yozuvchilar jamiyatdagi og’riqli nuqtalarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini deyarli barcha asarlarida o‘z mafkuralari orqali namoyon etadi. Ya’ni jamiyatda oilaga, ayolga bo‘lgan e’tibor ijobiy tomonga o‘zgarmas ekan, jamiyat ham o‘zgarmasligini aytib o‘tadilar.

Hamza ana shu hodisaning boshida turdi va o‘z dramatik asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasiga asos soldi.

Hamza, Mirmuhsin-Fikriylar adabiyotimiz tarixida birinchi bo‘lib, “ro‘mon” degan atama, tushuncha, qolaversa janrning paydo bo‘lishining embrional davrini boshlab bergan bo‘lsa-da, Abdulla Qodiriy romanlari bu boradagi amaliy jarayon va izlanishlarning yagona va mukammal mevasi sifatida birinchi yetuk o‘zbek realistik milliy romanning tug’ilishiga olib keldi”.

Abdulla Qodiriy dramalari hamda romanlarida ayollar timsolining o‘ziga xos xususiyatlari

Abdulla Qodiriyning ko‘plab asarlarida ayollar obrazi o‘ziga xoslikni kasb etgan Uning asarlari orqali biz o‘sha davr tarixini, ijtimoiy ahvolini, siyosiy jarayonlardan tortib eng kichik jabhalargacha ko‘ra olamiz. Uning asarlari shu qadar keng qamrovliki, uni o‘qigan oddiy xalq ham, ziyoli qatlam ham o‘ziga nimadir ololadi. Uning shunday yetuk asarlaridan biri “Diyori bakr” asari hisoblanadi. Mazkur asardan o‘rin olgan kichik maqola va hikoyachalarda Qodiriyning ichki dunyosi, xolis so‘zi, jur’ati va insoniy burchi kabilar aks etadiki, buni ziyrak kitobxon satrlardagi yozuvchining qalb og‘riqlari orqali his qiladi. Davr va turmush talabi, bu jarayonda inson ehtiyoji, qarashlari hamda manfaati ekanligini ijodkorning kichik asarlari asosida kuzatishimiz mumkin.

Ushbu asar 1910-20, 30-yillardagi matbuot matni asosida tayyorlandi. Unda ayollar timsoli ham o‘ziga xos. Asarda o‘sha davr nafasi ufurib turadi. Xususan, “Juvonboz” asarida keltirilgan Soliha obrazi eriga vafodor ayol timsolini ko‘zimiz oldida gavdalantiradi. U erining maktubini kutadi, maktub kelgach, o‘zida yo‘q suyunib ketadi. Lekin uning eri yaxshi, samimiy inson bo‘lgani bilan Solihaning farzandi besoqolboz bo‘lib, taqdir uni farzandidan kuydiradi. Demak, o‘sha davrda besoqolbozlik jamiyat kushandasiga aylangan.

“Baxtsiz kuyov” asaridagi Rahima obrazi yorga vafodor, yori uchun o‘z jonini fido qiluvchi ayollar timsolini gavdalantiradi. U yorining qiyin ahvolini ko‘rib yuragi achishadi, yori uchun hatto o‘z jonini fido qiladi. Bu asar qahramoni Rahimaning eri to‘y orqasidan kata qarzga botib qoladi va qiyinchiliklar girdobida qoladi. Ana shu holat asarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, asarda “Jinlar bazmi”, “Uloqda” hikoyalarida ham ayollar obrazi uchraydi. Undagi ayollar sho‘x, dard-g’amdan yiroqroq ayol obrazi sifatida gavdalanadi.

Abdulla Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazi bilan Cho‘lpon, Hamza asarlaridagi ayollar obrazi farqli. Negaki, Qodiriy asarlaridagi ayollar obrazida hurlik holatlari kuzatilsa, Cho‘lpon va Hamza asarlaridagi ayollar obrazida ayollarga o‘tkaziladigan zug’um ko‘plab uchraydi.

Abdulla Qodiriy Kumush, Ra’no, Soliha, Habiba, umuman olganda, asarlarida o‘ziga xos obraz yaratgan ayollar mard, jasur, yori uchun jonini berishga tayyor kuchli ayollardir. Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida kuchsiz ayollarni tasvirlashdan ko‘ra kuchli ayollarni tasvirlashga

intilgan, chunki u o‘zbek ayollarini ana shunday kuchli, matonatli bo‘lishini orzu qilgan, desak mubolag’a bo‘lmaydi

Haqiqatdan ham, ma’rifatparvarlarimiz o‘z asarlari orqali ayollar ozodligi, erkinligi uchun kurash olib borishganligi o‘sha davr asarlaridan ko‘zga tashlanib turadi. Bu esa hamma davrda ayollarga hurmat-e’tibor mavjud bo‘lganligidan dalolatdir.

To‘ylar, turli marosimlar bilan bog’liq muammolar, isrofgarchilik va dil xiraliklar hamma vaqt asosiy muammo bo‘lib kelgan. Bunga sabab, insonlarning tor dunyoqarashi, atrofdagi odamlarning gapiga qarab ish qilishi va albatta haddan ortiq orzu-havasga berilishidir. Bunday insonlar nafaqat o‘zini balki, boshqalarni ham qiyin vaziyatda qoldirishi, hattoki hayotiga zomin bo‘lishi ham mumkin. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi hisoblangan Abdulla Qodiriy o‘zining “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida aynan shu kabi muammolarni ko‘targan. Muallif qoloq odatlardan biri – hashamatli to‘y ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko‘ngilsiz oqibatlarini yoritadi.[34]

Cho‘lpon Qodiriy ijodiga ergashib, Kumush va Ra’no obrazlariga havas qilib, o‘zining yorqin ijodia betakror Zebi timsolini yaratdi.

Xususan, Cho‘lponning nasriy “Kecha va kunduz” asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi-hurkak ohu kabi go‘zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi.

Abdulla Qodiriy o‘z xalqining hayotini birovlar orqali va kitoblardan bilgan emas, u bevosita odamlar bilan suhbat qurib, ularning alohida jihatlarini o‘ziga singdirgan. 1961 yil rus tilida chop etilgan “Mehrobdan chayon” romanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, yozuvchi o‘zbek xalqi hayoti va tarixini, davr ranglarini yorqin va sidqidildan ifoda etib bera olgan, qahramonlar fe’l-atvorini XIX asrning 40-yillariga xos sharoitlarda ochib bera olgan. Ushbu yangilikni ochishda Abdulla Qodiriy o‘zbek tarixiy romannavisligiga asos soladi. O‘zining “Mehrobdan chayon” romanida yozuvchi haqiqat

[34] Karimov B. «Adabiyot, badiiyat, abadiyat». T.: Xotiralar, badialar, maqolalar. 2004.

yo‘nalishi an’analarini sezilarli boyitgan, qahramonlarning psixologik shakliga muhim hissa qo‘shgan, insonning ichki dunyosini ifoda etishning yangi usullarini ochgan, qahramonlarning fe’l-atvori o‘zgarishini ko‘rsatib bergan. “Mehrobdan chayon” romani – ikki asr bo‘sag‘asidagi turkiston jamiyatining ijtimoiy, axloqiy hayoti haqidagi roy-ro‘st asar. A.Qodiriy xalqning feodal tuzumdagi hayot tarzining o‘ziga xos mohiyatini ochib berishga intilgan, hukmdorlarning ishlarini va fe’l-atvorini, ma’naviy ustozlarni ko‘rsatadi. Ushbu ziddiyatlar tantanavor emas, ular qahramonlarning og‘ir turmushidan kelib chiqadi – Abdurahmonning ayolni o‘ziga bo‘ysundirish istagi va Shohidbekning fitnalariga qaramay, Anvar va Ra’no bir-birini chinakam sevadi va oila qurishga harakat qiladi.

Go‘zallik, halollik, olijanoblikka intiluvchi Ra’noning fe’l-atvoriga xos, ajoyib qiz ko‘rinishini namoyon bo‘ladi – samimiy, toza niyatli, ma’nan sodda va ochiq. U Anvarni toza, yorqin sevgi ila beg‘araz va sadoqat bilan yaxshi ko‘radi. Anvar – mardlik timsoli, adolatli, cheskiz vijdon egasi.Yuqoridagi Ra’no obrazi, o‘zbeklarning orzusidagi qizni gavdalantiradi

Abdulla Qodiriy zamondoshlari haqidagi “Obid ketmon” romani, shov-shuvga sabab bo‘lgan “Shirvonlik Mallaboy aka” ocherki muallifi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixiga sezilarli hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab ocherk va hikoyalar muallifi. “Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga momaqaldiroq kabi kirib kelib, yorqin chaqmoq kabi barchaning e’tiborini o‘ziga qaratdi”, deb yozadi Izzat Sultonov.

Ushbu so‘zlarning haqqoniyligini qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov ta’kidlab, alohida qayt etadi: “Yoshligimizda Abdulla Qodiriy romanlarini berilib o‘qir edik. Biz uning inson fe’l-atvorini yasash, bizgacha inson ehtiroslarining tug‘yonini yetkazib berish mahoratidan hayratlanardik”. O‘zbek adabiyotida roman janrining asoschisi Abdulla Qodiriyning ko‘plab asarlari ko‘plab Sharq hamda MDH mamlakatlarida e’tirof qozondi.

Yuqoridagi Ra’no obrazi, o‘zbeklarning orzusidagi qizni gavdalantiradi. Uning ko‘plab asarlarida ayollar obrazi o‘ziga xoslikni kasb etgan Uning asarlari orqali biz o‘sha davr tarixini, ijtimoiy ahvolini, siyosiy jarayonlardan tortib eng kichik jabhalargacha ko‘ra olamiz. Uning asarlari shu qadar keng qamrovliki, uni o‘qigan oddiy xalq ham, ziyoli qatlam ham o‘ziga nimadir ololadi. Uning shunday yetuk asarlaridan biri “Diyori bakr” asari hisoblanadi. Mazkur asardan o‘rin olgan kichik maqola va hikoyachalarda Qodiriyning ichki dunyosi,

xolis so‘zi, jur’ati va insoniy burchi kabilar aks etadiki, buni ziyrak kitobxon satrlardagi yozuvchining qalb og‘riqlari orqali his qiladi. Davr va turmush talabi, bu jarayonda inson ehtiyoji, qarashlari hamda manfaati ekanligini ijodkorning kichik asarlari asosida kuzatishimiz mumkin.

Ushbu asar 1910-20, 30-yillardagi matbuot matni asosida tayyorlandi. Unda ayollar timsoli ham o‘ziga xos. Asarda o‘sha davr nafasi ufurib turadi. Xususan, “Juvonboz” asarida keltirilgan Soliha obrazi eriga vafodor ayol timsolini ko‘zimiz oldida gavdalantiradi. U erining maktubini kutadi, maktub kelgach, o‘zida yo‘q suyunib ketadi. Lekin uning eri yaxshi, samimiy inson bo‘lgani bilan Solihaning farzandi besoqolboz bo‘lib, taqdir uni farzandidan kuydiradi. Demak, o‘sha davrda besoqolbozlik jamiyat kushandasiga aylangan.

“Baxtsiz kuyov” asaridagi Rahima obrazi yorga vafodor, yori uchun o‘z jonini fido qiluvchi ayollar timsolini gavdalantiradi. U yorining qiyin ahvolini ko‘rib yuragi achishadi, yori uchun hatto o‘z jonini fido qiladi. Bu asar qahramoni Rahimaning eri to‘y orqasidan kata qarzga botib qoladi va qiyinchiliklar girdobida qoladi. Ana shu holat asarning asosini tashkil etadi.

Undan tashqari, asarda “Jinlar bazmi”, “Uloqda” hikoyalarida ham ayollar obrazi uchraydi. Undagi ayollar sho‘x, dard-g’amdan yiroqroq ayol obrazi sifatida gavdalanadi.

II.II. Avloniy, Cho‘lpon, Xoji Mo‘in dramalarida xotin-qizlar obrazining badiiy-estetik xususiyatlari

Jadid dramaturgiyasiga xos xususiyatlar ijodkor tafakkurida shakllangan g‘oyalar, go‘zallik, nafosat, zamonaviylik va shu kabi o‘lchamlar insoniyat buguni va kelajagiga xizmat qiluvchi estetik idealni yaratishda ishtirok etadi. «Eng oliy estetik qimmatlar amaliy, axloqiy, ma’rifiy va xususiy estetik qimmatlarning yonida turadigan mohiyat emas, u mazkur qimmatlarning yaxlitligidan tashkil topadi». Ya'ni, mukammallikni ta’min etuvchi bu xildagi shartlilik birlashmasidan badiiy asarda timsol obraz xosil bo‘ladi. O‘ziga xos betakror xarakter – mohiyatning obrazi sifatida insonning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy kamoloti masalalari yechimida ishtirok etadi[35].

[35] Davlatova Adiba. Nasriy asarlarda estetikideal talqini (XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti misolida). “Uslubiy qo‘llanma”: filol.fanlari.dokt.., -Toshkent: 2018. 14-bet

Cho‘lpon bu hikoyalarida o‘zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini badiiy tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g‘oyani aks ettirgan. Umuman, o zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho‘lpon she’riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, “Kecha va kunduz” (1936) romanining ham asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilab bergan.

Cho‘lponning “Novvoy qiz” hikoyasida ayol qismati tasvirlanar ekan, ayollardagi o‘ta soddalikning, ilmsizlikning, dunyodan bexabar yashashning va, albatta, intilish, harakatning yo‘qligi yetaklab borishi mumkin bo‘lgan ayanchli taqdir oshkora qalamga olinadi. Cho‘lpon Sharq ayoliga xos hayo, iffat saqlangan holda o‘zbek ayoli ham bilim olishi kerak, dunyoviy ilm shu’lasidan bahramand bo‘lishi kerak, fikr-mulohazasini oshkora avj pardada atishi kerak deydi. Bularga erishmoq uchun esa yana va yana o‘quv kerak, harakat qilish kerakligini ta’kidlaydi. Adib nazarda tutgan hayotiy haqiqat esa bunday edi: yo‘lda ketayotgan inson boshini ortiq darajada yerga qaratib yuborar ekan, u oyoq ostidagi tuproqni ko‘radi, bu holatdan esa ikki xil natijani kutish mumkin:

1) boshini juda egib yuborgan kishi oldidagi yo‘lni ko‘rmaydi va u to‘siqqa borib uriladi;

2) ortiqcha egilgan bosh shu alfozda ketaversa, sekin asta bel egiladi, tizzalar bukilib tiz cho‘kadi, oxir-oqibat esa tuproqqa qorishadi.

Ko‘rinib turganide,k har ikkisining ham natijasi halokatdir. Shu bois, adib har narsada me’yor bo‘lishi kerak degan xulosaning tarafdoridir. Tajribali adibning “Oktabr qizi” hikoyasi ham alamli haqiqatdan sizib chiqqan asardir. Hikoyada o‘zbek ayolining dardlari obrazlar orqali ayanchli talqin etiladi.Diltortar ovozi bilan dildagi dardlarni kuyga solgan qizning holatini ifodalashdagi mahoratga qarang. Hikoyadan keltirilgan quyidagi parchaga qaraylik: “O‘zbek qizining o‘z og‘zidan, o‘z tili bilan to‘kilgan o‘zbek dardlari, uning dutorining tovushlari bilan birga o‘zbek xalqining zang bosib kelayotgan dillariga shuncha yaxshi ta‟sir qildikim, zanglari sekin-sekin yuvilib, artilib borg‘ondek bo‘ldilar. Shuning uchun xalq ruhi uni sevdi”. Uni sevgan xalq unga Vannaychaxon deb nom berdi. Cho‘lpon mahorati bu bilan cheklanib qolmadi. Hamisha tabiatga oshno bo‘lgan ijod kishisi Cho‘lpon qizning o‘limi xabarini bunday tasvir etadi: “Yiroqlardan qarg‘alarning mudhish nag‘malari, shodlik kuylari eshitildi. Borib ko‘rdilar: paxta kabi oppoq tan, ko‘k qarg‘a shohidan ko‘ylak – qonga

belangan. Bosh tandan ayrilg„on holda, qon surkalgan qora sochlar ustiga yopilg‘on. Go‘zal qora ko‘zlar jahannam chuqurligiga botqonlar. Yuzdagi nurlar yiroq o‘lkalarni eslab uchib ketgan qushlar bilan birga ketganlar”. Bu jumlalar yozuvchining folklordan Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo‘lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo‘lishiga mamlakatdagi zulm-zo‘rovonlik ustuvor ekanligidadir.


Cho‘lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xushovozi bilan barchaning e’tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Bu asar orqali Cho‘lpon Zebi va unga o‘xshagan jabrlangan ayollar taqdiriga achinadi. Ularni ozod bo‘lishini istaydi. O‘z taqdirini o‘zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma’rifatli bo‘lishini istaydi.

Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romanga qanday kirib kelgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo‘lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo‘lishiga mamlakatdagi zulm-zo‘rovonlik ustuvor ekanligidadir.

Cho‘lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xushovozi bilan barchaning e’tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Bu asar orqali Cho‘lpon Zebi va unga o‘xshagan jabrlangan ayollar taqdiriga achinadi. Ularni ozod bo‘lishini istaydi. O‘z taqdirini o‘zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma’rifatli bo‘lishini istaydi.

Fikrimizning dalili sifatida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi, hurkak ohu kabi go‘zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi.

• Ushbu asar ayollarni jaholat botqog‘idan chiqishiga qaratiladi
• Zebi timsoliga quyidagicha sifatlar keltirib, ta’rif beramiz:



Ayollar turmushidagi haqsizlik mutelik yangi zamon ijodkorida norozilik kayfiyatni uyg‘otgan, muammoning faqatgina she’riyada sig‘masligini sezgan adib nasriy asarlarida ham masala yechimiga javoblar qidirgan edi. “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida Cho‘lpon Shafoatxonning qismati ortida aslida mutaassiblik, ko‘r-ko‘rona e’tiqod turganini mahorat bilan ochib bergan. Asar qahramoni Samarqand akaning “bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!” degan gapidan xotini Qumribush “oqardi, ko‘kardi, suvratdek qotib devorga suyanib qoldi...”.Qumribush reining qaroriga mana shunday javob qaytarishi mumkin xalos, uni o‘zgartirishga, qizining taqdiriga aralashishga haqli emas. Qumribush ruhiyatidagi “oqarish, ko‘karish, suvratdek qotib devorga suyanib qolish” shaklidagi isyon Qurbonbibi qalbida junbushga keldi. Zamon oqimiga qarshi bormaslik, er-xotin munosabatidagi tubsiz jarlik, dardini to‘rt devordan oshirib ayta olish imkonining o‘ta cheklanganligi uni aqldan ozdiradi. Adib davr fojiasini ayollar taqdiri vositasida tasvirlaydi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi o‘xshash voqealar, ayollar obrazinig Boy ila xizmatchi” dramasida yoritilishini quyidagicha solishtirib o‘tadi.

Ikkala asarda ham voqea-hodisa boyning uyida ichki va ayollarga bo‘lgan chirkin hayotni ko‘rsatib beradi.

Hattoki, ikki boy - Akbarali mingboshi, Solihboy xotinlarining sonini tengligi, xarakter-xususiyati ham bir-biriga ancha yaqinligi yuzasidan tahlil qilamiz.

“Kecha va kunduz” da “Boy ila xizmatchi”da

Xadichaxon - Poshsho oyim

Poshshoxon- Xonzoda

Sultonxon - Gulbahor

Zebi - Jamila

Dramaturg yo‘nalishida ijod qilgan Xoji Mo‘inning “Eski maktab, yangi maktab” pyesasida eski usul maktabi bilan yangi usul maktabi o‘quv tizimidagi farq tasvirlanib, «usuli jadid» maktabi olqishlansa, “To‘y”, “Ko‘knori”, “Mazluma xotin” kabi sahna asarlarida xalq orasida urfga kirib qolgan yomon odatlar qoralanadi. Bulardan tashqari, Xoji Mo‘in “Maorif qurbonlari”, “Juvonbozlik qurbonlari”, “Boy ila xizmatkor”, “Qozi ila muallim” kabi pyesalar ham yozgan. Ularning ayrimlari o‘sha davrda sahnalashtirilgan bo‘lsa-da, muallifning chop etilmay yo‘qolgan asarlari qatoriga kiradi. Professor. Naim Karimov “Baxmal pardasi” ilk bor ko‘tarilgan o‘zbek teatrining M. Behbudiydan keyingi ikkinchi tashkilotchisi Xoji Mo‘indir”, deb yozadi[36].

[36] Boybo‘ta Do‘storayev, filologiya fanlari nomzodi, dotsen

XULOSA

Ushbu tadqiqotda bayon qilingan fikr-mulohazalar bo‘yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

XX asrning 1-choragida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy sharoitning o‘ziga xosligi, ma’lumki, ikki asosiy omil:

– kapitalistik ijtimoiy munosabatalarning qaror topa boshlagani;

– Turkistonning mustamlaka o‘lkasi bo‘lganligi bilan belgilangandir.

Yurtimizda yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topa boshlashi ijtimoiy-tarixiy va siyosiy taraqqiyotning tabiiy hosilasi emas, ko‘proq tashqi omillar ta‘siri bilan bog‘liq edi. Ijtimoiy taraqqiyot bobida yevropa mamlakatlaridan ancha ortda qolgan Rossiya ta’sirida hali anchagina mustahkam feodal asoslarga kapitalistik munosabatlar shakllandi. Albatta, bu narsa ijtimoiy taraqqiyot sur’atini tezlatdi, biroq, yurtimizda eskilik va yangilikning ajib quramasi vujudga keldiki, har ikkisining orasidagi farq yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Bu esa, tabiiyki, eskilikni tugatish, jamiyat hayotini isloh etish, millatni taraqqiy ettirish zaruratini bosh mezon deb bildilar.

Ijtimoiy hayotdagi turli haqsizlik va adolatsizliklarga, jabr-zulmlarga qaramay, 20-asrning birinchi choragida o‘zbek adabiyoti o‘z tarixining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Adabiyotda zamonaviy mavzu asosiy o ‘ringa chiqdi. Zamondoshlarning jonli obrazlari yaratildi. Bu davr adabiyotida badiiy mahorat sezilarli darajada o‘sdi.

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-adabiy muhit yangicha fikrlaydigan, millat va mamlakat taqdiriga befarq qaramaydigan ijodkorlarni shakllantirdi. Natijada yangi o‘zbek adabiyoti 30-yillarda baquvvat adabiyot sifatida tanila boshladi.

Ayni shu zaruratni teran idrok qilgan fidoyi ziyolilarimizni yagona maqsad atrofida birlashtirgan ma’rifiy-islohiy harakat milliy tariximizga jadidchilik nomi bilan kirdi. Jadidchilik g‘oyalarini ommalashtirishda adabiyotning roli benihoya katta edi, lekin o‘sha davrda, bu ulkan tarixiy missiyani uddalash uchun adabiyotning o‘zidan ham shunga mos holda o‘zgarish, yangilanish talab qilinardi.

Jadidchilik g‘oyalari o‘z atrofida turli ijodkorlarni birlashtirgani holda ijtimoiy yo‘naltirilgan, o‘zining badiiy arsenalida Sharqu G‘arb adabiyotlariga xos usul, vositalarni omuxta etishga intilgan yangi adabiyotni maydonga chiqardi. Biroq, aytish kerakki, jadid adabiyoti vakillari o‘z faoliyatlarining g‘oyaviy tamoyillarini mukammal adabiy-

estetik dastur tarzida shakllantirib ulgurmadilar – ijtimoiy hayotdagi keskin burilishlar bunga imkon bermadi.

XX asr jamiyatidagi chirkin va qora vaziyatlar, ayollarning kamsitilishi, jamiyat va hukumat ishlaridan ayro tutilishi, huquq va manfaatlarining toptalishi, nafaqat jamiyat tomonidan, balki, o‘z oila a'zolari, otasi, turmush o‘rtog‘i tomonidan turli bosimlarga uchragani, ta'lim hamda tarbiyadan yiroq tutildi.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar yetakchilik qilgan. O‘lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo‘ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o‘stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg‘onish yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta'lim va tarbiyada - ma'rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo‘lida hormay-tolmay ishladilar. Bu davrlarda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmas edi. Jadidlar, ya'ni ma'rifatchilar millatning ma'naviy kamoloti yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo‘lgan fidoyilar edi.

Ular millatni qoloqlikdan, xurofot botqoqidan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish qoyasini ilgari surganlar va bu borada o‘zlari amaliy harakat namunasini ko‘rsatganlar.

Jadid ijodkorlarining deyarli barchalari dramaturgiya bobida o‘zlarini sinab ko‘rib, qalam tebratib, o‘zlarining ijod namunalari bilan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarlarda faol ishtirok etib bordilar. Dramatik asarlar davr muhitini ya’ni, haqiqatni kuylagani bilan o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Abdulla Qodiriyning “Juvonboz” asarida keltirilgan Soliha obrazi eriga vafodor ayol timsoli. Uning eri yaxshi, samimiy inson bo‘lgani bilan farzandi besoqolboz bo‘lib, taqdir uni farzandidan kuydiradi. Demak, o‘sha davrda besoqolbozlik jamiyat kushandasiga aylangan.

“Baxtsiz kuyov” asaridagi Rahima obrazi yorga vafodor, yori uchun o‘z jonini fido qiluvchi ayollar timsolini gavdalantiradi. U yorining qiyin ahvolini ko‘rib yuragi achishadi, yori uchun hatto o‘z jonini fido qiladi. Bu asar qahramoni Rahimaning eri to‘y orqasidan kata qarzga botib qoladi va qiyinchiliklar girdobida qoladi. Asardagi bu holat o‘sha davr insonlari ilmsizligi va jaholatining yana bir ko‘rininshidir.

Behbudiyning “Padarkush” dramasida ayollar timsoli o‘ziga xos mavzuga aylana olgan, asardagi ayol obrazi qanoatsizlik, sabrsizlik timsoli bo‘lib gavdalangan.

Dramaturgiya yo‘nalishida ijod qilgan Xoji Mo‘inning “Eski maktab, yangi maktab” pyesasida eski usul maktabi bilan yangi usul maktabi o‘quv tizimidagi farq tasvirlanib, «usuli jadid» maktabi olqishlansa, “To‘y”, “Ko‘knori”, “Mazluma xotin” kabi sahna asarlarida xalq orasida urfga kirib qolgan yomon odatlar qoralanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2019, 2-jild. 508 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2019, 2-jild. 400 b.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar

5. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild –Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild –Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
7. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019.9. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.-Toshkent: Sharq, 2013.
8. Abdulla Qodiriy. Diyori Bakr. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2007.
9. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.-Toshkent: G‘afur Gulom, 2017.
10. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild. - Toshkent: Ma’naviyat, 2020. 170 b.
11. Ahmad Aliyev. Ijod va izlanishlar - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
12. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. – Toshkent: Fan, 1991. -8 b.
13. Alimova D. A., Golovanov A.A. O‘zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
14. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
15. Davlatova Adiba. Nasriy asarlarda estetik ideal talqini (XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti misolida). Filol.fanlari.dokt. diss., -Toshkent: 2018.
16. Dildoraxon Abdullaeva. O‘zbek adabiyotida an’anaviy poetik turkumlar. -Andijon: “Hayot” nashriyoti. 2012. 52 b.

17. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari. Toshkent: “Ma’naviyat” 2006.

18. Homidov. H. va bosh. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati.1983.

19. Insoniyatning ilmiy-madaniy me’rosi 3 ming yillikda. – Toshkent: 1997. 53b.

20. Karimov. I.A Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 49-bet

21. Karimov B. Adabiyot, badiiyat, abadiyat. // Xotiralar, badialar, maqolalar. Toshkent: 2004.

22. Mahmudxo‘ja B.Tanlangan asarlar.–Toshkent: Ma’naviyat, 1997. 8 b.

23. Mirzo Abdulazim Somiy. Tarixi Saltanati mang‘tiya.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 1962. -122 b.

24. Mirvaliev S. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 1992.

25. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 2004.

26. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2005.

27. Naimov N. “Buxoro jadidlari” – Toshkent: 2000. -46-47 b.

28. Nodira Xolikova. O‘zbek jadid she’riyatida ozodlik harakatining badiiy talqini. -Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti”. 2020 - 12 b.

29. Safo Matjon. O‘zbek adabiyoti ma’ruza majmuasi. -Toshkent: 2006.

30. Sultonov U. Cho‘lponning adabiy-estetik qarashlari. - T.: NDA, 1995.

31. Tashmuxamedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. -Toshkent: Noshr, 2019.

32. Tillaboyev S, Zamonov A.9-sinf O‘zbekiston tarixi // Darslik.-Toshkent: 2019. 88-bet.

33. Umarali Normatov. Qodiriy mo‘jizasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” 2010.46-bet.

34. O‘roqova O. Cho‘lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari. T., 2018. 37b.

35. O‘zbek adabiyoti tarixi // O‘quv-uslubiy majmua.-Chirchiq 2021.

36. Shamsutdinov R, Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. Andijon: 2011. 306-307 b.

37. Shermatova.U. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarixiy, adabiy-badiiy manbalar vositasida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.//O‘quv uslubiy qo‘llanma.-Toshkent: Yangiyul polygraph service” 2020. 38-44 b.

38. Shuhrat Rizayev.Jadid dramasi.-Toshkent: Sharq, 1997.111-bet.

39. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. Toshkent, 2008.

40. Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi. She’riy to‘plam. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019.

41. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.

42. Cho‘lpon. Vayronalar orasida. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

43. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 – jild. Toshkent: Akademnashr, 2013-293 b.

44. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. -T.: Akademnashr, 2016- 200-b.

Internet manbalari

45. www,ziyo.uz.com.kutubxonasi. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush dramasi

46. www,ziyo.uz.com.kutubxonasi. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon romani

MUNDARIJA

Kirish 3

I BOB. O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI

I.I. XX asr 1-choragidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy hayot 7

I.II. Xotin-qizlar timsolida jaholat va ma’rifat talqini 30

II BOB. JADID DRAMALARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING TADRIJIY TALQINI

II.I. Behbudiy, Hamza, Qodiriy dramalarida xotin-qizlar obrazining o‘ziga xos xususiyatlari 45

II.II. Avloniy, Cho‘lpon, Xoji Mo‘in dramalarida xotin-qizlar obrazining badiiy-estetik xususiyatlari 58

Xulosa 63

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati 66

GULSHODAXON TOJIBOYEVA

JADID DRAMATURGIYASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING ADABIY-ESTETIK TADRIJI

Monografiya

Muharrir D.Ulug'murodov
Dizayner B.Haydarov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 3996-sonli TASDIQNOMA berilgan

Bosishga 2022-yil 19-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi.
Ofset bosma usulida bosildi. "Times" garniturasi.
Shartli bosma taboq 4,3. Adadi 200 nusxa.

Original maket
"FIRDAVS-SHOH" nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30.
Tel.: 90-372-85-17